

USMON AZIM

SOG‘INCH

She‘rlar



“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”
Davlat ilmiy nashriyoti
Toshkent

- Azim Usmon.
- A37 Sog'inch:** She'rlar/Usmon Azim. – T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. – 200 b. – (O'quvchining kitob javoni).

Mazkur to'plamga shoirning asosan sevgi va sadoqat, xususan, baxshiyona ruhda yozilgan she'rlari jamlandi. Turli yillarda yozilgan bu asarlar siz aziz o'quvchilarga manzur bo'ladi, degan umiddamiz.

BBK 84(5U)6

U $\frac{4702620202}{358-2007}$

ISBN 978-9943-07-041-7

© «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»
Davlat ilmiy nashriyoti, 2007.



O‘ZIM HAQIMDA

*Men – Usmon Azim,
Boysunda tug‘ilib,
Toshkentda yashayapman,
ko‘nglimda yashayapman,
dunyoda yashayapman
va bir ayolning yuragida.*

*Dunyo – ro‘zg‘orimday:
uni o‘ylayverib,
sochlarim oqardi.*

*Garchi shoirman,
tushdan boqmadim dunyoga,
angladim – u toshdir.
Hamma qatori yashadim
shu tosh ichra –
ko‘karishga urindim:
ko‘karmoq og‘ir –
suyaklarim mayishdi,
yuragim tilka-pora,
asablarda sanoqsiz qisqa tutashuv...*

*Yolg‘ondan uyaldim.
Qochmadim yomondan –
shu sabab o‘t oldi
xonumonim mening.*

*Hayot – kitob emas, deyishsa,
kuldim,
chunki o‘zim ko‘rganman
(necha bor)
hayotning satrlarga kirganini...*



*Haqiqatga
chohdaligida ham
sig'inaverdim.*

*Qarashlarim ko'p o'zgardi,
chunki fikrim o'sdi,
aqlim o'sdi,
hayot dars berdi
boshimga urib -
urib...*

*Fikri o'zgarmaganlardan
hadiksiradim,
cho'chidim qo'li mushtlardan.
Daholarni esa
bir bechora qurbon bildim.
Bechora qurbonlar!*

*Erta sezdim
dunyoning torligini:
to'rt tarafga urilaverib,
peshonamda qolmadi peshona.
Angladim -
faqat osmonga intilish mumkin,
faqat kirish mumkin yerga.*

*Aniq aytdim hamma narsaning ismini:
toza - toza,
iflos - iflos,
halol - halol,
harom - harom...
Umrinni do'zax qildi bu haromilar!*

*Hayotga ishonganday
ishondim o'limga ham -
u bilan ko'p gaplashdim
hayot haqida:
eng go'zal she'rlarim o'sha suhbatlardan.*



*Faqat xudodan qo'rqdim.
Faqat xudoga shukur qildim.
Xudo berganini oldim intilib.*

*Angladim:
o'lsam,
har kim o'zicha dafn etar meni:
bolalarim o'zicha,
Toshkent o'zicha,
Boysun o'zicha,
dunyo o'zicha.*

*Meni bor bo'yimcha
hech kim
ko'molmas.*

*Xullas,
men — Usmon Azim —
ishonchli qo'llardaman:
xudoga topshirganman o'zimni,
o'zimga o'zimni vasiyat qilganman...*



* * *

Tong titraydi kech kuzakning quchog'ida,
Yulduzlarni o'chirmoqda gulgun shafaq.
Jonim, qalbim she'riyatning pichog'ida...
Zamin — tilsim, osmon — tilsim... she'r —
beshafqat!

Men qiynaldim. Xayolimning qanotida
Dengizlarni ko'targancha tolib uchdim.
Yulduzlarni ko'p ko'rganman hayotimda,
Dengizdagi yulduzlarni keldi quchgim.

Ko'kka boqdim, o't tutashdi jismim aro,
Qat-qat bulut qatlarida ne sir-asror!
Hayrat ichra o'ldirgusi meni samo,
Ona zamin, bir uchayin, qo'yib yubor!

Men yor dedim... Laylimi yo, Shirinmi yo!
Yoki endi tug'ilajak biror malak!
Mana men, deb ko'z oldimda bo'ldi paydo,
Mana men, deb she'rdan boqdi yakto yurak.

Yulduzlarni o'chirmoqda gulgun shafaq,
Tong titraydi kech kuzakning quchog'ida.
She'r yozilar... Qiynoq, senga bo'lsin sharaf,
Jonim, qalbim she'riyatning pichog'ida.

Hali butun ro'yi zamin she'r bo'lajak,
Faqat bekor bilib orom quchog'ini —
Bu dunyoni sirga ko'mib yashash kerak,
Qalbga sanchib she'riyatning pichog'ini!



* * *

Umrinni bir olis ishqqa almashdim,
Qochdim hushyorlikdan, tushga almashdim.
Beqanot qalbimni qushga almashdim —

Sizsiz o'tgan umrim bekor, yorijon!
Ne baxtkim, yuragim bemor, yorijon!

Ul ko'zda qay kuni porladi ziyo,
Dunyodan kechgulik topdim bir dunyo.
Bu dunyo nimadir? Bu dunyo — ro'yo —

Faqat pok ishqingiz haqdir, yorijon,
Qalbinga eng yuksak taxtdir, yorijon.

Garchi o'rtamizda sog'inch-u hijron,
Garchi visol yo'li vayrondir, vayron,
Ammo azobingiz ko'ksimda har on —

Muqaddas olovday qoldi, yorijon,
Shukurkim, siz bilan yondim, yorijon,

Yashardim o'zimga muz kabi boqib,
Ishq keldi, jo'nadim, daryoday oqib,
Menga habib bo'ldi hatto shum raqib —

Ko'rib — to'lqin-to'lqin qonim, yorijon,
Siz mening jonimsiz, jonim, yorijon.

Hech qachon demasman boshni yo'qotdim,
Eridim, vujuddan toshni yo'qotdim,
Yillarni yo'qotdim — yoshni yo'qotdim,

Mendan ayro tushdi yolg'on, yorijon,
Shundanmi tillarim ravon, yorijon.

Nodon der "Sen borni yo'qqa almashding,
Quyoshni bir g'arib cho'qqa almashding..."
Kulaman: "Xalqobni ko'kka almashding..."

Endi yurar yo'lim falak, yorijon,
Qanotga aylandi yurak, yorijon!
Qanotga aylandi yurak, yorijon!



* * *

Yolg'izlik ortimdan huvillab quvdi,
Toki yiqilguncha yugurdim betin...
Bir ayol tuflimning loyini yuvdi —
Unga sevaman deb aytmagan edim.

Qismat masxaralab bizni otgandi
Tanholik kechasin tor quchog'iga.
Bilmadim, qay mahal ayol uyg'ondi
Tufli yuvmoqlikning ishtiyoqida.

Asli masxaralash qismat matlabi,
Ammo hayrat ichra gangidi xiyol:
Quvonib (masalan, gul tergan kabi),
Tufli yuvar ekan tunda bir ayol.

Menga ko'zi tushib ayol qizardi,
Uyaldi — qo'llari tushdi shalvirab.
Endi u qarshimda yig'lab turardi,
Yomg'ir qo'ynidagi bargday qaltirab.

Qo'ymog'im shart edi bir jasur qadam, —
Qulab tanholikning g'arib arshidan.
Cho'chidim men — mehr ko'rmagan odam —
Sevgi tufli yuvib chiqsa qarshimdan.

Ketdim... Yomg'irdayin o'tdim-u ketdim,
Ming asr tanholik kechdi boshimdan.
Ming asr oralab qaytadan yetdim,
O'sha yolg'iz qolgan ayol qoshiga.

U menga baxt berdi osmonday ulkan,
Men-chi?.. Men qovrildim baxtning dog'ida...
Bedorman-u nechun uyg'onolmayman
Tufli yuvmoqlikning ishtiyoqida.



DASHT HAQIDA BALLADA

Erkin A'zamovga bag'ishladim

Tog'lar kichraydi. Pasaydi osmon.
Yashab bo'lmaydi-ku, axir engashib...
Jo'nadim balandroq osmonlar tomon,
Ortimdan Boysunning dashti ergashdi...

Meni ishonmadi ufqlarga u,
Dosh berib tezlikning shamollariga
Ortimdan yugurdi, yugurdi yohu,
Qoqilib temir yo'l shpallariga.

Vagonga chiqazib qay bir bekatda,
Koyidim: – Bu ishdan zarra yo'q ma'ni!..
U ruhsiz cho'zildi tepa qavatga,
Biletsiz va pulsiz yo'lovchi kabi.

So'ng shahar ko'chasi, xiyobonlari
Aro kezdim – joylab dilimga uni –
Odam-u mashina olomonlari
Toptab ketishmasin kup-kunduz kuni.

Davr-u davron surdim har hafta ko'chib,
Ijara uylarning shavqi yodimda!
Qattiqqo'l xo'jayin ko'zidan cho'chib,
U beun yashadi mening yonimda.

Muhabbat lovullab kirdi yurakka,
Ilk bora alamli so'zlar tingladim:
Yuzlarimni bosib xas-u xashakka,
Dashtimni quchoqlab tunlar yig'ladim.

Bahorda ko'karib, kuzda sarg'ayib,
Sukunat-u qorga o'ranib qishda,
G'o'ra she'rlaringa boqdi mung'ayib...
Xullas, sodiq bo'ldi har ezgu ishda!



... Ammo, nima qilib qo‘ydi bu yillar!
Garchi men, munaqqid aytganday, “o‘sdim”.
O‘rtamizga kirdi qay ayyor jinlar,
Ko‘p xona uyimga sig‘maydi do‘stim,

Yalinaman unga:

– Bor, Boysunga bor!
Shaharga yarashmas sahroyi so‘xtang.
Borsang–shamol tayyor, yomg‘ir ham tayyor,
Tog‘lar orasida yashaysan ko‘rkam.

Pand-u nasihatlar berib tolaman,
Aldayman:

– Yur, ketskik ifor terгани.
Har bahor dovdırab Boysun boraman.
Boysunga dashtini tashlab kelgani...

Qaytaman. Ammo dasht sezib ulgurar...
Dosh berib tezlikning shamollariga,
Ortimdan halloslab, shoshib yugurar,
Qoqilib temir yo‘l shpallariga.

Uyimga gezarib kirib kelaman,
Meni asra endi, inglizcha qulf!
Shundoq ostonada dasht qolar garang,
Eshikka termulib “uf” tortadi... uf!

Mana, tong chog‘ida ishga ketayapman.
Yurak, azobdasan – qanday dard ezar?
Junjikib, egasiz it kabi g‘amgin,
Vokzal maydonida yolg‘iz dasht kezar...



* * *

Bekor. Yolg'on! Botmagan
Muhabbatning quyoshi.
Tun keldi, deb dodlagan
Bevafolar ko'z yoshi.

Men boraman. Bu jonim
Senikidir... O'ksima.
Tunda qo'rqma. Oq tongning
Bir parchasi ko'ksimda...



LO'LI QIZ QO'SHIG'I

Men yo'llarda tug'ilganman,
Ayrilmasman yo'llardan.
Umrим o'tar yo'llar bilan,
Kezib-kezib o'larman.

Bugun bo'lsa yuraginga
Hamdam begona tuyg'u.
Bu tuyg'ular o'tkinchidir,
Faqat shu yo'llar mangu.

O'tar edim bir qishloqdan,
Aqlim oldi bir o'g'lon.
Qololsaydim shu qishloqda,
Yashar edim bearmon.

Ul yigitga yor bo'lishni,
Orzu qilaman, orzu.
Ammo orzu o'tkinchidir
Faqat shu yo'llar mangu.

Lovullaydi jajji gulxan,
Unga boqib o'ylayman.
Qo'lga olib childirmani,
G'amlarimni kuylayman.

Muhabbatim dovul misol,
Qalbimga solar g'ulu.
Ammo sevgi o'tkinchidir,
Faqat shu yo'llar mangu.

Ketmas bo'lsa muhabbatim,
Qalbimda qolsa turib,
Uni sira ayamasman,
O'ldiradurman bo'g'ib –

Har narsani yengadurman,
Muhabbat oddiy g'am-ku!
U o'tkinchi... o'tib ketar...
Faqat shu yo'llar mangu.



* * *

Osmonga ham otgum tosh,
Gunohkor boʻlsa quyosh.
Gunohkor boʻlsa quyosh,
Qaytib tushmagaydir tosh.

Osmon ham boʻlib gʻanim,
Qaytib tushsa — ne gʻamim!
Bir tosh tushsa tushibdi
Togʻday boshimga manim.



PARALLEL CHIZIQLAR

Biz parallel chiziqlarmiz,
Uchrashmaymiz hech qachon.
Olg'a qarab talpinamiz,
Izma-izmas, yonma-yon.
Tog' duch kelsa, teshish kerak,
Xanjar bo'lar tanamiz.
To'g'ri yo'lda lovullagan
Chaqmoqlarda yonamiz.
Biz parallel chiziqlarmiz!
To'g'rilik – taqdirimiz.
Umrimizga tik, to'g'ri yo'l
Quramiz har birimiz.
Cheksizlikka yuguramiz,
Izma-izmas, yonma-yon.
Do'stlarmiz-ku, ko'rishmaymiz,
Uchrashmaymiz hech qachon.

To'g'ri yo'llar charchatdi-ku,
Ey, parallel yo'ldoshim,
Chaqmoqlarda, tumanlarda
Qoldi sabr-u bardoshim.
Boqqin egri chiziq'larga
Ular ayrilaverar.
Lahza o'tmay yo'llaridan
Jim-jit qayrilaverar.
Yel qo'zg'olsa, qaltirashar,
Sokin panoh izlashar,
Chaqmoq chaqsa, chekinishar,
Olovlarda muzlashar.
Men ne uchun?.. Bo'ldi... Xayr,
Ey, parallel yo'ldoshim!..
...Bir kun beg'am egrilikdan

Aylanib to'xtar boshim.
Shunda sening yo'llaringga



Termulaman nigoron.
Egrilikdan har lahzada
Topdim visol-u hijron –
Ammo qolib ketaverdim,
Bir manzilda aylanib,
Yana yo'lga chiqsammikin,
Chiqsammikin shaylanib.
Visol menga kerak emas,
Mayli, o'ldirsin hijron...

Parallelim, meni kechir.
“Xo'p” de yuray yonma-yon.
Men-ku bir kun hayqiraman
Lobachevskiy misol:
“Parallellar kesishadi!”—
Do'stim, hamdam qila qol.



MO‘MIN MIRZONING SO‘NGGI QO‘SHIG‘I

Meni asir oldilar.
Bedovimning badani
Asabiy titrar, uchar...
Olloh, karaming qani?
Bedovim pishqiradi,
Kishnaydi ezib-ezib,
Jiloviga yopishgan
Ajalning qo‘lin sezib...
Meni asir oldilar.
Osmon — qaro, yer — qaro...
Nega istiqbolimga
Chiqding, sen, ey fuqaro?
Balki bir tirik satrim
Cho‘kkan ko‘ngling ko‘tarib,
Uchgan g‘amxona yerdan
Orzu osmoni sari.
Balki yetim-yesirga
(Tiyolmay ko‘zdan yoshim)
Ehson aylaganimda.
Xayolkash vatandoshim,
Boshimga toj kiygizib,
Meni ko‘rgansan sulton —
Jami jonzod baxtiyor,
El — tinch, yurt — omon-omon...
Balki ustod Alisher
Qalbidan ko‘chgan mehr
Yuraginga pok ruhim
Bandlab, aylagan sehr...
Meni asir oldilar.
Otim suvlig‘in chaynar,
Nayzalari so‘lqillab,
Qo‘llarida o‘q-yoylar,
Qo‘riqchilar tegramda
Qur tashlab borar hushyor.
Dardimni aytolmayman...
Xalq, tingla bir band ash‘or:



“Men ham ilkimda qilich,
Ovlaganman yo‘lbars, sher!
Dushman muzaffar o‘ldi,
Ag‘yor falak qildi yer...”*
Meni asir oldilar...
Bo‘g‘zimda erk qo‘shig‘i!
Angrayib ochiladi
Hibsxona eshigi.
So‘ng bor olamga boqqin
Ey, omonat hayotim!
(Ko‘zida yosh aylanib,
Qo‘limni yalar otim).
Endi hech ko‘rishmaymiz,
Oqibatli fuqaro,
Oyoq-qo‘lim qop-qaro.
To‘rt tomonda sollanar
Xoin mushtlar ko‘lkasi...
Nega tinch yasholmaysan,
Bobolarim o‘lkasi?
Nahot har zukko aql,
Sheryurak, temirbilak,
Fitnalarning zarbidan
Yo‘qlikka ketsa qulab?
“Men ham ilkimda qilich,
Ovlaganman yo‘lbars, sher.
Dushman muzaffar o‘ldi,
Ag‘yor falak qildi yer...”
Bu tun bobom g‘o‘ldirab,
Shirkayf boqib jahonga,
Muhr bosar qonsirab
Qaltiragan farmonga.
Nizomulmuluk tirjayar,
Ta‘zim aylar bosh egib.
Jallodga “oq yo‘l” tilar
Momom Xadichabegim...
Hibsxona eshigi

* Bu o‘rinda Mo‘min Mirzoning she‘ri erkinroq bir tarzda keltirildi. Muzaffar so‘zida ikki ma‘no bor: muzaffar – g‘olib, Muzaffar – Mo‘min Mirzoni hibsga olgan amakisi – Muzaffar Ho‘saynning ismi hamdir.



Shiddat bilan ochilar,
Bir xavotir ichida
Tosh qotadi soqchilar.
Kir panjasin bo'g'zimga
Qadar jallod Biy Jangiy...
Qonxo'r! Muncha titrama,
Oyoq-qo'lim ko'ganli!
Olloh, sobit sabr ber!
O'lim oldi talvasam
Viqorli, sokin bo'lsin –
Ajalga boqay o'ktam.
Ko'ksimda qotar nafas...
Karaxt tanimdan oqib,
Jonim oyday chiqar-u
Tumanga ketar botib.
Qotil! Tamom... Men o'ldim...
Qotil! Bo'ynimni bo'shat!
Ruhim el aro uchar
Bir dasta nurga o'xshab.
Nurga tashna, ey xalqim,
Men uchunmi kiyding ko'k?
Yosh edim – dardlaringga
Malham bo'lolganim yo'q.
Jasadim sovib borar...
Qotil, olgin qo'lingni,
Allaqachon tanimga
Joylagansan o'limni.
Nimadan qo'rqayapsan?
Titrayapsan? Hushyorsan?
Meni yana asrlar
Bo'g'moqlikka tayyorsan...
Asriy zo'riqish nechun?
Axir, ushbu lahzalar
Abadiyat toj-taxtdan
Jirkanmog'iga yetar!..



ABDULLA QODIRIY

Bo'g'zimga bahaybat qayg'u tiqildi,
Ko'zimga yiqildi qop-qora bulut.
Tizzamdan sirg'alib kitob yiqildi,
Birdan sinfga cho'kdi bir hayron sukut.

Partaga bag'rimni berib yig'ladim,
Sukunatga aytdim: "Jon berdi... Kumush..."
Muallim jilmayib meni tingladi,
Boshimni siladi ham shod, ham xomush.

Derazadan nari, yomg'ir qo'ynida,
Gullarga badanin ko'mardi bahor.
Muallim temulib bahor ro'yiga,
Dedi: "O'zbekiston mangu barqaror!"

Yomg'irday bir sog'inch ko'ksimga to'ldi,
Yurakka tutashdi notanish g'ulu.
Nogoh Vatanimni ko'rganday bo'ldim,
Qodiriyning xuddi o'zi edi u.

To'rt devordan bo'lsa, boqardilar jim,
Sinovchan ko'zlarin ko'zimga qadab,
Hozircha suratda taniganlarim —
Navoiy, Nodira, Gulxaniy, Mashrab...



QISHKI ERTAK

Togʻ-dalada mast kezar chilla,
Tunlar ayoz shunaqa zoʻrki...
Izgʻirinli, sovuq tong palla
Tushib qoldi qopqonga boʻri.

Tumshugʻini choʻzib osmonga,
Gʻazab bilan uvladi bir dam.
Soʻngra hamla qildi qopqonga,
Qopqon boʻlsa bardoshli, mahkam.

Koʻp urindi... oxir bemador
Oppoq qorga choʻzildi, mana.
Oʻlim oldi bandi jonivor,
Nimalarni oʻylar ekan-a?

Koʻz oldiga balki kelgandir
Dalalarda ozod kezgani.
Poyoni yoʻq togʻlar-u adir
Oʻzimmiki deya sezgani.

Balki tongni kuta boshladi...
Koʻz oldidan oʻta boshladi...
... U qopqonga tushgan oyogʻin
Gʻajib-gʻajib uzib tashladi!

Oppoq qorga qonlar oqizib,
Oqsoqlanib joʻnab ketgan dam,
Bulutlardan nurlari sizib,
Quyosh chiqdi, tugadi tong ham.

Hamroh boʻlib quyosh nuriga,
Ovchi kelib qoldi shu nafas.
Ovchi, quvon, seniki oʻlja,
Majruh boʻri qochib qutulmas.

Ovchi boʻlsa (ovchimi oʻzi?!)
Hayron boqib turgan qopqonga,
Xayollarga koʻmilib oʻzi,
Qaytib ketdi qishloq tomonga...



* * *

Chavandoz uloqdan qaydi piyoda,
– Ranglaringiz bir ol, ayting, ne bo'ldi?
– Onasi, dardimni qilma ziyoda,
Onasi, otginam... otginam o'ldi,

Uchib borar edim misoli shamol,
Otginam qoqildi. O'tmasdan birpas...
Jasadi ustida turib qoldim, lol,
Onasi, otimdan ajraldim, xullas...

Chavandoz xo'rsindi, "ux" tortdi og'ir –
Bir chetga jimgina burdi yuzini.
Balki u – erkak-da! – istamagandir,
Xotini ko'rishin yoshli ko'zini.

Olamni tark etdi oftob-u kunduz,
Chavandoz xo'rsinar, o'ylar otini.
Eriga boqqancha mayin-u ma'yus,
Gapirmas, o'ltirar sassiz xotini.

Chavandoz xo'rsinar... Ot qayda endi,
Endi qaydan bo'lsin u rohat – lazzat?
Xotini ham jim-jit o'ltiraverdi,
Na tasalli berdi va na nasihat.

Chavandoz xo'rsinar... Tong otar edi,
Eng so'nggi yulduzlar borardi botib,
Xotini shivirlar: "Hech xafa bo'lmang,
Sizga ot olamiz uy-joyni sotib..."



* * *

Moviy havo to‘lqinlarida
O‘ynab uchdim quyoshga tomon.
Ikki ko‘zim ammo zaminda,
Ochman — Yerda don bor, don bor... Don!

Qushman!
Ruhning tirik shoniman!
Ammo ochlik — la’nati qiynoq...
Yerda don bor!
Garchi yonida
Ot yolidan eshilgan tuzoq.

Men qaytaman quyosh yo‘lidan,
Qanotimni tuzoq qayirgay.
Ming yil bandi yotgum qo‘lida,
Ming yil osmonimdan ayirgay.

Ming yil umri o‘tadi tunday,
Kuy tug‘ilar bo‘g‘zimda uzoq.
Bir kun nogoh sayrayman shunday —
Qirq joyidan uzilgay tuzoq.

Osmon bordir,
Axir, dunyoda!
Osmonda erk uchadi tanho...
Quchog‘iga meni oladir,
Moviy havo,
To‘lqinli havo!

Qanotlarim erkni sog‘ingan,
Quyosh, sen ham emassan yetim...
Yana kim u donga sig‘ingan?..
Qornim,
Asir tushmaganmidig?



* * *

Ohista-ohista yogʻadi yomgʻir,
Ohista-ohista qoʻzgʻalar shamol.
Ohista-ohista toʻkar yumshoq nur
Bulutlar bagʻridan koʻringan hilol.

Ohista-ohista yigʻlaydi bir qiz,
Kaptar patidan ham mayin dardlari...
Tun tirik... Yaxshilab tinglab koʻrsangiz
Eshitilar uning yurak zarblari...

Ne nafis tugʻyonlar ichida qoldik!
Sevgilim, gapirma, oʻltirgin tinib —
Goʻyo dunyo goʻdak qalbidan nozik,
Goʻyo entiksang ham ketadi sinib...



**MAMATRAYIM BAXSHINING
BIR DAVRADA AYTGANI**

Ko'pingiz yomonmas, yaxshi bolasiz,
Yashaysiz do'konni ona deb bilib.
Birovning ko'ziga tikka boqmaysiz,
Poyiga boqasiz zimdan tikilib.

Poyafzal – hammaga qismati azal,
Ularga taqdirlar yozilgan aniq.
Kimningdir umridan omad qochsa sal,
Etigi albatta qolar qiyshayib.

Puldorning oyog'i mudom yarqirar,
Bulutsiz umridan beg'am nishona.
Unga duch kelganda ayyor bolalar,
Girdida bo'lasiz darrov parvona.

Baxshi bobongizni bilmaysiz ammo,
Bu ayyor o'yinda sizlarni yutdim!
Menga berolmaysiz hech qanday baho –
Oyoqyalang bo'lib dunyodan o'tdim...

**VATAN HAQIDA SHE'R**

Opa esingizda-ku,
("O, hanuz og'riydi dil")
Ochlikdan qorni shishgan
Qirq beshinchi mash'um yil.
Yetti yoshda edingiz
Sizga emasdi pinhon:
Urush – o'lim, shodlik – xat,
Tiriklik-ku, aniq – non.
Opa, esingizda-ku,
Kelganda javzo oyi,
Sarg'ayib dumbul tortdi
Bolg'alining bug'doyi.
Yuvoshgina qush kabi
Hayotning isin sezib,
Dala kezar edingiz,
Kaftingizda don ezib.
Siz aniq bilardingiz,
Tiriklikning ismi – non,
...Bosib ketdi dalani
Ot dupuri nogahon.
Kaftingizga jonsarak
Yashirdingiz boshqni.
E voh, yer shuncha qattiq,
Osmon shuncha uzoqmi?!
Qanotingiz bo'lsa ham,
Qayga uchradingiz, xo'sh?
Ot kelar, chavandozning
Bir yengi hilpirar – bo'sh...
Tanidingiz bu – rais,
Undan titraydi qishloq.
"Rais" desa jim qotar,
"Yig'layotgan" qo'g'irchoq.
...Eslaysiz, magazinda,



Bo'lgan edi "ur-yiqit".
"Yo'q, yana quyasan", deb
Hayqirdi birqo'l yigit.
U yig'ladi go'dakday...
"Shahid qolgan do'stlarning
Qasosini albatta,
Olaman", deb bo'zladi.
Boqilgan qo'yday semiz,
Magazinchi Shoyimning
Yoqasiga yopishdi: "Topdim, deya xoinni!".
Ertasi xotin-xalaj
Yig'ildi – umummajlis.
Yigit o'rnidan turdi:
– Saylanglar, bo'lay rais...
Saylashsa saylashar-da,
Odam kam-u, rais mo'!
Mayli, yayrab qoladi... –
Xotinlar ko'tardi qo'l.
Keyin rais hayqirdi:
"Agar kelguncha zafar,
Kim o'zini ayasa,
Mana qamchi!.. Xotinlar!"
Nonning lazzatini-ku,
To'lab bo'lmas qamchisiz...
Boshingizni qo'l bilan
Bekitib cho'kdingiz tiz...
– Bu yurganing nimasi,
Oyoqyalang, boshyalang,
(Don to'la kaftingizni
Siqdingiz, qo'rqib mahkam)
– Qani, qo'lingda nima?
(Qo'rquv, dahshat aralash
Kaftingizni ochdingiz –
Endi mumkin savalash).

Ko'zingiz yoshsiz edi,
Jiddiy – tayyor xo'rlikka.
Kim ham rahm qilardi
Sag'ir qolgan sho'rlikka.



Hamma butun tayoqlar
Yetim boshda sinadi...
Rais otidan tushib
Boshingizni siladi.
Ishonmasdan boqdingiz
Ko'zlariga umidvor.
Hayrat ichra qotdingiz...
U yig'lardi shashqator.
Yig'lar edi... Qizimni
Ezmasin deb cho'ng qayg'u
Tunda sassiz ezilgan
Onangizga o'xshab u.
Siz ham zor yig'lab birdan
Osildingiz bo'yniga...
Ot o'ynatib u ketdi
Bug'doyzorning qo'ynidan.
Javzo. Bir erka shamol
Bug'doyzorga urar to'sh.
Ot yelar. Chavandozning
Bir yengi hilpirar — bo'sh.
Opa, o'shandan buyon
Vatan haqida suhbat
Qo'zg'alsa kirib kelar
Ko'zingizga bir surat:
Javzo. Bir erka shamol
Bug'doyzorga urar to'sh.
Ot yelar. Chavandozning
Bir yengi hilpirar — bo'sh...
Opa, Vatan — ulug' dard!
Opa, Vatan bog' bo'lsin!
She'rdan suratini chizsam,
To'rt muchasi sog' bo'lsin!



BOYCHECHAK

Opam Saidaga

Ey, mening munisginam,
Mehribonim, opajon.
Baland tog'lar bag'rida
Bormisan sog'-u omon?
Kecha xatingni olib,
Ko'ksimga tushdi g'ulu...
"Usmon, juda sog'indim,
Sen meni unutding-ku..."
Opa, unutganim yo'q,
Qo'y, qilmagin imtihon.
Muhabbatim, hurmatim,
Sog'inchim qalbda nihon.
Qanday yodimdan chiqsin
Tepaliklar, dalalar...
Bahor bilan mast bo'lib,
Kuylardik biz bolalar:
"Boychechagim boylandi,
Boychechagim boylandi..."
...Bugun olamda yoshlik,
Zamin qancha aylandi.
Yigirma uch gul fasli
Bargday umrimdan uchdi.
Ne turfa tashvish, yumush,
Opa, bag'rimni quchdi.
Shu she'rni bitayotib
Boqqandim derazaga,
Ko'rib bir manzarani
Qalbim tushdi larzaga.
Quvonchimga qayerdan
O'xshatish topayin mos!
Xullas, opa, daraxtlar
Guldan kiyibdi libos.
Yana oydin xayollar



To'ldirdilar xonamni:
Ana, hovlimiz... sen... men...
Qish... Qor ko'mgan olamni,
Izg'irinda junjikib
O'ltiribmiz ayvonda.
Oyog'imizda etik,
Eskigina choponda.
Qachon keladi bahor...
Necha kun, necha kunduz?!
...Bir kun uzulib tushar
Tarnovga osilgan muz.
Bulut ko'kda urar charx,
Maysalar nish otadi.
Quyosh tansiq nurini
Sochib-sochib botadi.
Opa-uka izlaymiz
Dala-dashtda boychechak:
"Qor eridi, qo'rqmagin,
Ochil asta, oychechak".
Oxir ko'rsatar yuzin,
Bizni zor etgan chechak,
Baxtini topgan kabi
Toshar, hovliqar yurak.
Oq yomg'irda bosh yalang,
Raqs tushamiz, o'ynaymiz.
Kamalakda ko'milib,
Jaranglatib kuylaymiz:
"Boychechagim boylandi,
Boychechagim boylandi..."
...Bugun olisda yoshlik,
Zamin qancha aylandi.
Tortib ko'rdim dunyoning
Lazzati-yu, alamin.
Goho o'ksik, gohida
Shodmon yozdi qalamim.
Ba'zan jim-jit, tinch oqdim,
Ba'zan ko'tardim isyon –
Kurashda ham, g'amda ham,
Bayrog'im bo'ldi vijdon.



Goh she'rdam bo'ldim mag'lub,
Goh kuldim tantanavor!..
Qisqa qilib aytayin —
Opa, ukang baxtiyor!
Ammo sokin bu hayot,
Zeriktiradi ba'zan.
Shunda, mehribonginam,
Seni ko'rmoq istayman.
Opa, unutganim yo'q...
Qorlar erib bitgan choq
Uyga kirib boraman,
Tugar hijron-u firoq.
Bir kungina o'shanda
Qo'ygin ro'zg'or g'amini,
Ikkalamiz ertasi
To'ldiramiz kamini.
Dala-dashtga chiqamiz
Izlaydurmiz boychechak.
Odamlar kulsa-kulsin,
Bir kun bo'lamiz go'dak.
Oq yomg'irda boshyalang,
Raqs tushamiz o'ynaymiz,
Kamalakka ko'milib
Kulib-yig'lab kuylaymiz!
“Boychechagim boylandi,
Boychechagim boylandi...”



ONAMGA MAKTUB

Erta-indin yelar izg'irin,
Yiqiladi bog'larga tuman.
Anglagani yashashning sirin
So'zlashaman yomg'irlar bilan.

Mast-u alast, beg'am do'st-u yor.
Toliqtirar qalbimni manim.
Shunda birdan bo'ladi oshkor
Yolg'izlardan yolg'iz ekanim.

Derazaga ho'l bag'rin bosib,
Kuzak tuni surganda xayol —
Men eng go'zal she'rimni yozib,
Sizni eslab yig'lashim ayon.



* * *

Sen yo‘q eding. Besarhad fazo,
Olti qit‘a, to‘rt bahri ulkan
O‘rtasida yashadim tanho
Mushtday mo‘jaz yuragim bilan.

Hayajon-u zavqdan begona,
Tinch daryoday jim oqdi umrim.
U zamonlar sen bir afsona,
U payt hali yo‘q eding, qumrim.

Vahimali, cheki yo‘q olam,
Bag‘rida har sharpadan cho‘chib
Yashadim men – eng mitti odam,
Goh miltirab, gohida o‘chib.

So‘ng sen kelding sevib, o‘rtanib,
Panohimga, mehrimga mushtoq.
Yoningdaman, qo‘rqma, sevgilim,
Men naqadar qudratliman, boq!

Sehrgarman, ko‘k shevasida
Yulduzlar-la so‘ylay olaman.
Mast erurman ishq kemasida,
To‘fonlarda o‘ynay olaman.

Men saxiyman – kim istasa baxt
Ko‘ksin nurga to‘ldiradurman.
Oyni ko‘kdan uzib olib dast
Peshonangga qo‘ndiradurman.

...Gulim, sovuq boqma, qo‘rqaman,
Qo‘rqaman boz bo‘ladi paydo –
Olti qit‘a, to‘rt bahri ulkan,
Huvullagan dahshatli fazo...



* * *

Derazadan boqar sohibjamol oy,
Nigohlari to'la karashma, chiroy.
Kechirgin bo'libman oyga mahliyo.
Ishon, endi unga qilmayman parvo.

Oyning sochlarini mayli, o'rmayman,
Men seni oylarga bermayman.

Suluv kelinchakdek bezanmish bahor.
Dalalar ham gulzor, bog'lar ham gulzor.
Gullarga boqqandim, kulib, ochilib,
Yoshlaring ketdilar nurdaiy sochilib.

Bahor gullarini mayli, termayman,
Men seni gullarga bermayman.

She'r chorlar, bir lahza asir bo'laman.
Yonaman, kuyaman, toshib-to'laman.
Sen-chi, unut bo'lib g'arib burchakda
Turibsan... G'am toshi cho'kar yurakka...

Ilhom bilan, mayli, suhbat qurmayman,
Men seni hech kimga bermayman...

Qancha shirin damdan kechmog'im mumkin,
Faqat sen o'ynagin, quvongin, kulgin.
Sen mening taqdirim, oxir azalim,
Sen mening bahorim, oyim, g'azalim.

Qalbimsan! Men qalbsiz sira yurmayman,
Qalbimni hech kimga bermayman...
Men seni hech kimga bermayman...



* * *

Rashk, g'iybatning to'liqlarida
Kema misol chayqaldi xonam.
Endi bizlar hech uchrashmaymiz...
Xayr!

Tong otadi,
Sen yo'q.
Kun botadi,
Sen yo'q.

Stolimda sen yozgan xatlar,
Devordagi suratdan ham sen
Mehr bilan boqib turibsan.
Derazadan ko'ringan osmon
Parchasiga shodmon boqardik,
Yulduzlari kulganida ham,
Ol shafaqqa to'lganida ham...
Xonam, o'zim, bu ulkan olam
Sendan qolgan g'amgin xotira.

Tong otadi,
Sen yo'q.
Kun botadi,
Sen yo'q.

Uzoqlarda bepoyon yo'lda
Yig'lab ketib bormoqdasan sen,
Oyoqlaring tagidagi yer
To'liqin otar monandi dengiz.
Oq chorlog'im, uchib charchading —
Yiqilasan daqiqadan so'ng,
Yiqilasan, to'liqinlar yutar...



Tong otadi,
Sen yoʻq.
Kun botadi,
Sen yoʻq.

Chidab boʻlmaydi.

Endi mendan ketdi ixtiyor!
Yuragimni qoʻyib kaftimga
Shivirlayman besabr, takror:
Qiblanamom, yoʻl koʻrsat menga!



ALAMLI QO'SHIQ

O'zgani sevsang, sevgin,
Men ham senga zormasman!
Kel, yonimga kela qol deb
Chorlasang ham bormasman!

O'zi seni nega sevdim?
Buncha bo'lmasam o'jiz.
Go'zalmassan, sen shunchaki
Nayrang-makri ko'proq qiz.

Rostin aytsam arzimaysan,
Na she'rim, na sevgimga.
Men balandman! Qo'ling yetmas!
Ketavergin tenging-la...

Nima deding! Aslo, hech ham
Ko'zimdagi yosh emas.
Yosh bo'lsa ham sening uchun
To'kmayapman...
Bo'ldi... Bas...

Ketgin endi. Sevmayman-ku,
Meni qoldirgin yolg'iz!
Tugayapti sabrim... Tag'in —
Oyog'ingga cho'kmay tiz...



YOZ

1

Daryoning qum qirg'oqlarida
Yap-yalang'och yotar saraton...
Men qichqirdim quloqlariga:
– Oting nima? Mudrama! Uyg'on!

Qumli sohil ketguncha uyqu...
Qilt etmadi saraton tani.
Ko'zni yumib yotaverdi u.
U erindi ismin aytgani.

2

Tush. Saraton chopadi ketmon.
Yuz-ko'zidan oqib borar ter.
Saratonim, jonim saraton,
Sen ismingni menga aytib ber.

Quyosh o'zi ming-ming asrkim,
O't ismini yillarga o'ymish...
Tush. Saraton ketmon chopar jim –
U ismini unutib qo'ymish...



* * *

Qiynaladi oftobni kutib
Yomg'irlardan ivigan shahar...
...Uxlab qolding, yig'lab, qon yutib,
Ko'ringanda ufqda sahar.

Taqdirimdan hech nolimayman,
Gar almashdi shomga tongimni.
Olib keldi bu oqshom bilan
Uzoqlarda qolgan jonimni.

Mening sarson umringa oydin
Rivoj tilab u chekdi fig'on.
Oyog'ini tavof qildim men –
Dunyoda eng omadsiz o'g'lon.

U hech narsa qilmadi talab,
Ming o'rgildi qosh-u ko'zimdan.
Uning qaro sochlarin silab,
Bu tun kechdim hatto o'zimdan.

Yomg'ir yog'di mayda-maydalab,
Mayda-mayda bo'ldi yuragim.
Tong otguncha qayta-qaytalab,
“Sevasanmi”, deya so'radim.

Qiynaladi oftobni kutib
Yomg'irlardan ivigan shahar...
...Sen ketasan qayga qon yutib,
Meni qayga boshlaydi sahar?



HAYOT QO'SHIG'I

Bog' qo'ynida ikki daraxt –
Bir-biriga intizor.
Sen – bir daraxt,
Men – bir daraxt,
Kuyib-kuyib o'tdik, yor.
Ammo bahor kelganida
Ochilish kerak ekan.
Gul-u meva, xazon bo'lib,
Sochilish kerak ekan.
Shamollarga dilim yordim,
Gul-yaproqlar tilida.
Yel kaftida olib kelgan
Har shiviring dilimda.
Ammo bahor kelganida
Ochilish kerak ekan.
Gul-u meva, xazon to'kib,
Sochilish kerak ekan.
Yerga bog'lab qo'yilganman,
Ildizim yer ostida.
Kechalari shovullayman,
Boqib bo'yi bastingga.
Ammo, yashash kerak ekan,
Ochilmoq kerak ekan.
Gul-u meva, xazon to'kib,
Sochilmoq kerak ekan.
Bog' qo'ynida ikki daraxt –
Bir-biriga intizor.
Sen – bir daraxt,
Men – bir daraxt,
Kuyib-kuyib o'tdik, yor!



BESEHR ERTAK

Biz uch og'a-ini edik,
Qo'shchi edik mehnatkash.
Akam bir kun yer timdalab,
Zerikdimi, dedi: — Bas!..
U sehrli daryo suvin
Ichaverdi simirib...
Daryo bo'lib ketdi akam,
Qirg'oqlarni yemirib.

Biz uch og'a-ini edik,
Mehnatda edik fido.
Ho'kiz quvib charchadimi,
Ukam ham bir kun — e voh!—
Bir jodugar qush ortidan
Chopaverib adashdi..
Shamol bo'lib ketdi ukam,
To'ldirib dala-dashtni.

Daryo bolam — alqar otam,
Shamol bolam — suyunar.
Mening esa shudgor kechib,
Tovonlarim o'yilar.
Ming yillarki, qo'sh haydayman —
Peshonamda achchiq ter...
Meni ham bir alqang, ota!
Men yer bo'ldim, ota, yer...



* * *

Otim qolar demagin
Bu dunyoda, shoirim.
Nomard to'fonlar tursa,
Otingdan gard qolmagay.

Zotim qolar demagin
Bu dunyoda, shoirim.
Qismat teskari bursa
Zotingda mard qolmagay.

Bu dunyoning dardini
Terib ketgin shoirim.
Joningga achinmagin –
Ketmaydimi chiriblar!

Bu dunyoga bir qo'shiq,
Berib ketgin, shoirim, –
Marhumlar uyg'onsinlar,
Uxlolmasin tiriklar.



* * *

Taxtli ko'ngil — faqir bo'lgin,
Baxtli ko'ngil — haqir bo'lgin,
Bahordan kech — taqir bo'lgin —
O'zing so'ng bir chechak o'stir.

Tosh bo'lmagin — oqib turgin,
Goh-goh o'zni yoqib turgin,
Ko'kka har dam boqib turgin —
Umiddan bir pechak o'stir.

Rasmingga boq, ko'pdir yolg'on,
Yarming — rahmon, yarming — shayton,
El koridan tolmaydig'on —
Bilak o'stir, bilak o'stir.

Bo'lsin desang el qarindosh,
Avval qilgin o'zingni fosh,
Beray desang yolg'onga dosh —
Tilak o'stir, tilak o'stir.

Odamgamas, haqqa ishon,
Sen kim bo'lsang — shudir zamon.
Ko'ksingni buz, etgin vayron —
Qaytadan bir yurak o'stir.



* * *

Derazamda ikki qush
Suhbat qurdi o'zicha:
— O, naqadar odobli,
Kamtar maxluq musicha!
Ana, kezar maydonda
Bir jufti — mo'min, qobil —
Topib olishsa bir don
Bo'lishadi teng, odil.
Ularga yot jang-jadal,
Tumshuq bilan urush yo'q.
Hurpayancha qo'rqitib,
Qanot bilan surish yo'q.
Rosa o'tdi jonimdan
Parrandalik kuchlari!
Musichaga tortsaydi
Bu dunyoning qushlari...

— O, malikam!
Podshohga
Bir og'izlik so'zingiz —
So'ng qushlarga boqsangiz
Lol qolasiz o'zingiz.
Bulbullar ham, quzg'un ham
Bir qafasga joylangay,
Bir kechada burgutlar
Musichaga aylangay...
— Jim bo'!
Suhbatimizni
Shoh bilmasin hech qachon.
Musichaga to'lgusi
Bir zumda yer-u osmon.
Bog'larda turfa-turfa
Sayroqilik so'ngusi,
Musicha sog' qolar-u
Boshqa qushlar o'lgusi.



* * *

Zanjirlarni uzdim,
G'ullarni buzdim,
Oxir zindonni ham ayladim vayron.
Erkin havo bilan hur bazm tuzdim –
O'ynadim bearmon,
Kuldim bearmon.

Mendan kulma, bola!
Hey, mendan kulma...
Sezayapman, kurashli taqdirlaringni.
Buzmoq – endi sendan,
Uzmoq – endi sendan –
Mening men ko'rmagan zanjirlarimni.



* * *

Yuraver. Qolma yo'ldan.
Qolgan qolar. Achinma.
Cho'chima hech narsadan –
O'zbekiston oldinda.

Botir bo'l. Olg'a yugur.
Qo'rqma har xil qotildan.
Axir, tog'dek suyanching –
O'zbekiston ortingda.



* * *

Goh gujum shovullar, goh shitirlar tok,
Bu — bog‘da adashgan parishon shamol.
Bormisan olamda, yuribsanmi sog‘,
Shamolday yo‘llarni yo‘qotgan ayol.

Sensiz — bahorlarim kuz bo‘ldi manim,
Men sensiz sarg‘aydim,
Men sensiz kuydim,
Bir tirik gulxanga aylandi tanim,
Shu olov ichida bir seni suydim.

Sen — bog‘lar qo‘ynida qiynalgan shamol,
Senga yo‘l bermaydi shoxlar chalkashib...
Yam-yashil bog‘larda adashgan ayol,
Men olov ichida qoldim adashib.



* * *

Tosh-beton cho'ng qoyalarda
Kabutarday yashagan qiz,
Qo'llarini – yolg'izlikdan –
Yelkanga jim tashlagan qiz,
Bu sevmaslik dunyosida
Xatarli ish boshlagan qiz –
Kelmaydimi ikkimizni
Baxtli-baxtli yashagimiz?

Ammo bizning ko'zimizda
To'kmoq uchun yoshimiz ko'p.
Ko'nglimizga otmoq uchun
Tilimizda toshimiz ko'p.
Go'yo hali o'lmoq uchun
Boshimiz ko'p, boshimiz ko'p –
Bo'lmasa... O, kelmasmidi
Baxtli-baxtli yashagimiz?



* * *

Siz yoqqansiz menga hamisha,
Faqat buni etmovdim oshkor.
O'ylovdimki, yurak topishar,
Bizdan ketgach sabr-u ixtiyor.
O, men sizni qanchalar kutdim –
Mana – oq soch, mana bu – ajin.
Kunlarimni tortqilab yutdi
Shum yolg'izlik – farishta g'ajir.
Ortingizdan ketishim mumkin,
Yo'l tugasa, yo'lsiz tentirab.
Ammo, ayting, yig'laysiz nechun
Manglayingiz devorga tirab?
Yo'q, hech sizga yetmasin ozor,
Tushinaman – yillar, andisha...
Faqat sizga aytmovdim oshkor –
Siz yoqqansiz menga hamisha,



* * *

Sevgimiz o'ldimi? – libosingiz ko'k,
Ko'nglingiz – begulxan, ko'zingiz – becho'g'.
Bizdan borish yo'qdir, sizdan – kelish yo'q –
Kelishsiz dunyoda beg'am, azizim,
Nega ko'zlaringiz benam, azizim.

O't yetdi – qaqshatdi band-bandlarimni,
Tuproqqa sochdingiz balandlarimni,
Aqlimni, dilimni – bebaxtlarimni –
Borishsiz dunyoga otgan, azizim,
Olisda oy kabi botgan, azizim –

Chunki tunga aytar rost “oh”ingiz yo'q,
Falakda kezgani sha'n rohingiz yo'q,
Nechun kelmaysiz, gar gunohingiz yo'q –
Boqaman: nigohim – gumon, azizim,
Yo'llaring tumandir, tuman, azizim.

Qarang, ming bir bargda kuzak uchadir,
Qizil-sarig'ida – yurak uchadir,
So'ngaklar uchadir, suyak uchadir –
Bu to'fon – xazonlig' menman, azizim,
Sizsiz ming kuzakka tengman, azizim.

Ammo siz sarg'aymang – gulli bog' bo'ling,
Yam-yashil ko'karing, mudom sog' bo'ling,
Bahorning bag'rida beadog' bo'ling –
Axir, qarg'aganim sizmas, azizim,
Ikki kuz dunyoga sig'mas, azizim...



* * *

Endi u ko'chaga sira bormayman.

Borsam — daraxtlari gullar telbahol,
Go'yo sen-u mening bahorim kabi.

Endi u ko'chaga sira bormayman.

Borsam — sim-sim yog'ar mayin yomg'irlar,
Ko'ngilchan yomg'irlar jim-jim yog'adi —
Go'yo sen-u mening yomg'irim kabi.

Endi u ko'chaga sira bormayman.

Borsam — falagida qolmas halovat —
Turnalar alamli qichqiriqlarda
Tushunksiz dardlarni aytib yig'lashar,
Go'yo sen-u mening qushlarim kabi.

Endi u ko'chaga sira bormayman.

Borsam — g'ussali bir derazasida
Ko'chaga termulib, holsiz turasan —
Dunyoning eng g'amgin darpardasiday.

Endi u ko'chaga sira bormayman.

Unda ne qilaman shamol bo'lmasam —
Parda etagingga shamol yuzimni
Bosib yig'lolmasman — nima qilaman?



* * *

Yiqildingmi?... Ko'zlaringda
Buncha alam,
Buncha alam!
Ust-u boshi chang ko'rmagan,
Dard ko'rmagan
Erka bolam!
Shiddatingning shamoliga
Hushing bir zum
Shaydo bo'ldi...
Sening ravon yo'llaringda
Bu tosh qaydan
Paydo bo'ldi?
Yoki aqling ketganmidi,
Endi toshlar
Qolmagan deb?
La'natlading, bolam meni
Yo'ldan toshni
Olmagan deb...
Erka bolam, kechir meni,
Oqsuyagim,
Muruvvat qil!
Toshli-toshli bu dunyoda
Maysaday xor
Yashadim, bil.
Toshlar bilan kurash tushdim –
Kurash bekor
Ketmagandir,
Qolgan bo'lsa biror zil tosh,
Bolam, kuchim
Yetmagandir...



BOLALIKDAN IKKI XOTIRA

1

QISH

U payt palto kiymas edi qish,
Qo'lgopi yo'q edi qo'lida,
Qish – yamoqli, ardoqli kalish –
Oyoq qo'ysang – qorga ko'milar.

Yayramasdi issiq uylarda
Izg'irinning uvvosin tinglab.
Qish – mol boqib muzlagan bola –
Darvozadan kiradi titrab.

Qish kezmasdi dil ochar mahal
Ko'chalarda burqsitib nafas.
Qish – dahlizda jon saqlar sandal,
Qish – pechkali uylarga havas.

U payt kitob o'qir edi qish –
Hayajondan titrab tovushi.
Qish – zindondan chiqqan Alpomish,
Qish – Barchinning siniq nolishi.

Qish – ertakning haroratida
Qalb ostida erigan toshlar.
Qish – orzuning sharor zabtidan
Kitoblarga to'kilgan yoshlar.



YOZ

Oftob g'olib keldi — muqarrar —
Kiyimini yechmasin qancha,
Termizdan to Toshkentga qadar
Yoz yiqildi shundoq chalqancha.

Turonning sha'n kengliklarida
Gul-u maysa lahzada — xazon.
Hayot — tog'lar qo'ltiqlarida,
Ariqlarning bo'ynidadir jon.

Lohaslanib mudradi kunduz
Gujumlarning soyalarida.
Irmoqlanib o'zin otdi muz
Boysuntog'ning qoyalaridan.

Shahar tomon jo'nadi bola —
Qo'llarida eski jomadon.
Jomadonda bir parcha dala,
Uch-to'rt kitob, ikki kulcha non.

Hovuzlarning tor o'lkasida
Qurbaqalar kechasi hofiz.
Boshin qo'yib yoz yelkasiga,
Kuyib-kuyib yig'ladi bir qiz.



* * *

Osmon uzilib tushdi...
Taqdirimni qoralab,
Men yuribman — osmonning
Parchalarin oralab.

Osmonning siniqlari
Qonatdi oyog'imni.
Osmon uzilib tushdi —
Sarg'aytdi siyog'imni.

Suyganim, yaramading
Hatto xayr-xo'shlikka...
Na quyosh-u na yulduz —
Yuksakdagi bo'shliqda.

Yuksakdagi hechsizlik
O'chirmas hatto tushni...
Sen qanday yashayapsan?—
Osmon o'yilib tushdi...



* * *

Bir gul eding — shamol bo'lib
Chamaningni ko'rib ketdim.
Shamolligim darding bilan
Ado bo'ldi — qurib ketdim.

Bir gul eding — bahoringda
Borligimni sezganing yo'q —
Do'zax sari o'zim yig'lab,
Karaxtlikda yurib ketdim.

Do'zaxning o'tida kuydim,
Do'zaxning o'tida kuldim —
Jamoling shu'lasini tushgach,
“Yo, Olloh” deb turib ketdim.

Sening hijringda gar o'lsam —
Tiriklikda ne armondir —
Seni hayron etib, yo'lni
Ayriliqqa burib ketdim.

G'ururim izmida, yorim,
Bu dunyodan borodirman —
Keta-ketguncha ko'ksimga
Urilib ketdim, urilib ketdim.

Visoling yo'q erur Yerda,
Samoga yetmadim, garchi
Go'zal tushlar quchog'ida
Go'zal o'ylar surib ketdim.

Kelar avlod, qayg'u tortsang,
Meni qarg'a! Meni qarg'a!—
Bu dunyoni o'zim yoshga
Qorib, g'amdin qurib ketdim.



* * *

Shamollarda ko‘zimdan
Uchgan yoshimsan, yor-a.
Ko‘ngil tubiga cho‘kkan
Otash toshimsan, yor-a.

Oshiq dilga yarashgay
Devonalig‘lar, yor-a.
Oshiqnlarni o‘ldurgay
Begonalig‘lar, yor-a.

Begonalig‘ ichida
“Oh”lari ko‘pdir, yor-a.
Tashlagani hijronning
Chohlari ko‘pdir, yor-a.

Baxtni osmonga otdim
Qaytib tushmadi, yor-a.
Yurak asli qush edi—
Nega uchmadi, yor-a.
Hay, yor-a!
Voy, yor-a!
Yurak bo‘ldi ovora...



* * *

Sevgi — xatda naqadar go'zal!
Dili — ayon, ruxsori — tiniq.
Gar qog'ozga tushgan besayqal,
Ishq selidan ko'zlari tinib.
Sevgi — xatda naqadar sodda,
Unutgandir o'tmish alamin.
Yuragini shoh bilan zotga
Topshirmoqchi butun olamni.
Sevgi — xatda naqadar yaqin.
Qalamga sir pichirlagan lab,
Go'yo hozir portlaydi — chaqin...
Lablarimda o'tdan qolgan taft.
Sevgi — xatda qanday barhayot...
Tugab borar sabr-u bardoshim.
Yirtaman-u — yetmaydi sabot
Yoqaman-u — tinmaydi yoshim.



* * *

Ariq bo'ldim yoz bog'larida,
Tanda yuvdim qiyoqlarini.
Yoz o'ltirdi qirg'oqlarimga –
Osiltirib oyoqlarini.

Halovatlar ufurib, sipo
Oqdim – quchib gullar bo'yini.
Vujudimni to'lg'otdi nogoh
Erka yozning olma o'yini.

Barglar aro tirik tangalar
Sochdi quyosh – sochdi bejarang.
Menda oqdi qanday olmalar! –
Xuddi qizning ko'ksiday tarang.

Taniq sevgim! Issiq badan yoz!
Quchog'ingda oqmoqlik orom –
Har ildizga intilib mumtoz
Tan bo'lguncha bog' ichra talon.

Ariq bo'ldim yoz bog'larida –
Yo'ng'ichqalar aro taralдим.
Daraxtlarning yaproqlarida,
Mevasida qayta yaralдим.

Men seningman, seningman – tamom!
Talon bo'ldim – tamom yo'q bo'ldim.
Bir mevangda qizardim alvon,
Bir bargingda ko'kdan ko'k bo'ldim.

Yoz! Sevganim! Jonim – beminnat!
Ne'matingga qotilaman men...
Bir tangaga – oxir oqibat –
Bozoringda sotilaman men.



* * *

Og'ir fe'lli mehnatkash bola
Horimaydi yo'ng'ichqa o'rib...
Ko'kartirar maysani yana
Tinmas Hayot — abadiy cho'ri.
Hovuzlarning labida qator —
Qator tollar — salqin qo'shini —
Jonbaxsh suvga soyalar otar —
Baliqlarga ketar qo'shilib.
Olisdagi tog'lar-u dashtlar
Karaxtlikda tosh qotgan ummon.
Chizillovuq kuylab po'st tashlar,
Po'st tashlar-u bo'ladi qurbon.
Dashtda otlar kishnashar tolib,
Kishan botib oyoqlariga.
(Bola g'amgin boqar maysaning
O'roq tekkan qiyoqlariga).
Qushlar nogoh eshitar nola
Bargda qirg'iy ko'lkasini ko'rib...
Og'ir fe'lli, mehnatkash bola
Horimaydi yo'ng'ichqa o'rib.
U anglamas borligin zavol,
Go'yo mangu fursatlar yetgan...
Shunday yozni tashlab bemalol,
O'sha bola qaylarga ketgan?



* * *

Saraton — ochiq yuz,
Baxtiyorim ketdi.
Qolmadi men bilan
Beqarorim ketdi.

Ey, barg, sening kabi
Men ham sargʻaydim,
Vaqtning qoʻllarida
Eʻtiborim ketdi.

Gul qani? Yoz boʻyi
Meni kutgandi —
Oh, qaysi xazonda
Intizorim ketdi?

Yoz-u bahorini
Berib hijronga,
Xazonlarni bosib
Yor-u zorim ketdi.

Ruhim zard-u barg-u
Dardga qorishdi —
Mezon kabi uchib
Tanda borim ketdi.

Gul, kechir! Yor, kechir!
Kuzga asirman —
Ixtiyorim ketdi,
Ixtiyorim ketdi...



* * *

Ana, yurak qush kabi uchdi!
Bahor chog'i vujud – yoriltosh...
Cheksizlikka ko'nglimdan tushdi
Men yo'qotgan qatra sevinch yosh.

Bahorholim! – Beadoq kenglik –
Ko'rinmaydi “oh”inning cheti...
Urinadi mitti qush – “men”lik,
Yo'q, sevinchga bo'lmaydi yetib.



* * *

Qirq ot qo'ydi qismat qarshimda
Egarlama, kerakmas, dedim.
Yuragimning so'ngsiz dashtidan
Men piyoda o'tmoqchi edim.

Qirq qush qo'ydi qismat qarshimda,
Yo'q, Semurg'lar kerakmas, dedim.
Yuragimning yuksak arshiga
Men qanotsiz ketmoqchi edim.

Qarshimdagi qirq yoshim — qirq g'am,
Senga yig'lab nimalar dedim?
Bahorimni bir bora ko'rsam
Kuzga o'zim ketmoqchi edim...



* * *

Inʻom etib bor neʻmatini
Bogʻdan chiqdi Hotamitoy – yoz.
Xayollanib – muruvvatini
Rad etganday bir nonkoʻr noxos.

Koʻchalarning rangli bagʻriga
Otash bagʻrin tekkizmay –purgʻam,
Otash yukin tashlab sagʻriga,
U oʻltirdi sohilda bir dam.

Suron solib shoʻngʻimadi u
Suvning tiniq badanlariga.
Oʻz holiga boqdi serqaygʻu –
Oʻchayotgan gulxanlariga.

Men ham oʻsha qirgʻoqda edim,
Achinsam-da yozning holiga.
Gʻamda edim, charchoqda edim,
Borolmadim uning yoniga.

Tunda suvning notinch mavjlari
Yuraginga urildi noxos...
Borsa kelmas xotima sari,
Nahot, shu tun ketib qolding yoz?



* * *

Mening tosh ko'nglimni taroshla,
Ishq, devona shaklingga solgin!
Jonni g'amga tashla taloshga –
Dard rishtasi tortmasin salqi.
Olib ketgin – qolmasin osmon,
Yerni toshmi, yo havo ayla.
Bu dunyoda qolmasin armon –
Ko'nglimni bir haq nido ayla.
Ishq, sendadir eng so'nggi najot,
Uzat, toza dastingni uzat –
Sen yo'q joyda g'aribdir hayot,
Sen yo'q joyda kishandir uzlat.
Kel, qirq yillik umrimni buzib,
Kel, qirq tomchi yoshimni yutay.
Va umrimni bir gulday uzib,
Bir yo'lchining qo'liga tutay...



* * *

O'lgin deding — yerga ko'mding —
Ildiz bo'ldim.
Ko'kka otding — yo'q bo'l deding —
Yulduz bo'ldim.
Tilim kesding — tilim aytdi
Rost kalima...
Qiyin bo'ldi senga sho'rlik
Dushmanim-a!
Dushmanim-a, toshlar otib
To'ymaydursan.
Tuproq bo'lay, desam, nega
Qo'ymaydursan?..



* * *

Jonim manim,
Qalbim manim,
Ko'zim manim,
O'zga vujud aro tolgan o'zim manim,
Yuzsiz qolgan bu dunyoda yuzim manim,
Ko'zim manim,
Ko'zimdagi so'zim manim –
Angla,
Biz ham zamonaning zaylidirmiz,
Bir sevgidan ikkimiz ham ayridirmiz,
Kajraftorning kaj qismatga xayridirmiz,
Faqat yig'lab –
Mayli, dermiz,
Mayli dermiz...
Tangri yo'li isyonimiz – faqir she'rmiz,
Bizni yodlab ulgurgan yo'q hatto Termiz,
Hukmfarmo osmon tepsa, qaro yermiz –
Mayli, dermiz,
Mayli, dermiz,
Mayli, dermiz...
Firoq yetdi –
Jovdirama, ko'zim manim,
Pichoq yetdi –
Yum ko'zingni,
Qo'zim manim...



* * *

Yulduz uchsa qo'rqmagin,
Mening yulduzim yo'qdir.
Boltaga tiz cho'kmagin,
Shox-u ildizim yo'qdir.

Qishdan xavotir olma —
Yozim ham qish, kuzim ham.
O'rtanib quloq solma —
Menikimas sozim ham.

Bu ko'nglim devonadir,
Boradir meni tashlab.
Dunyo ham begonadir —
Umrinni qurdi toshdan.

Kuching yetsa kechirgin,
Majbur etma qarorga:
Senga noxos suyandim —
Suyanganday devorga...



* * *

Baxt kabi gulladi bog'imda bahor,
Janubdan quchog'i ilib qaytdi yel.
Hamma g'ashliklarni
Yengdim bu nahor,
Hamma eshiklarni ochib qo'ydim –
Kel!
Tumanni ko'tardim –
Ko'chalar ravshan.
Hasan-u Husanga chulg'adim ko'kni...
Ko'zlarim toliqdi –
Nega kelmaysan?
Xudo xohlasa ham uchrashmoq yo'qmi?



* * *

Ko'kda – shamol daryolarida
Qanot qoqmay suzadi bulut.
Ishon ko'ngil shamollariga,
Boshqa hamma dunyoni unut.
Qanotingni yozsang bo'lgani,
Ro'baro'ngdan chiqadi visol.
Uchrashamiz noxos to'lg'onib,
Biz – ikkita beg'ubor shamol.
Tund firoqning shotiri – sitam
Qo'llaridan sitilar dilim...

Shamollarda ammo orom kam,
Balki toshlik yaxshi, sevgilim?
... Shamollarni ayla-yu orzu
Qanotingni kesgin-u tinchlan.
Ko'rishmoqlik ba'zida og'u,
Ajrataadi bizni sog'inchdan...



* * *

Eng avval teraklar
Barglarin to'kdi.
So'ngra xazon bo'ldi gilos-u o'rik.
Shiddatim
Qalbdagi xazonga cho'kdi,
Yuragim uvishdi
Dunyoni ko'rib.
Xotira to'ridan
"Kelgin, kel" deding –
Men seni sevganman. Zarra tonmayman.
Bahor bo'lganda ham bir gapi edi...
Endi kuzak keldi.
Bora olayman.



* * *

Sevgi yozi kuzga ko'mildi –
Omon qolding yong'inlaridan.
Sen junjikding – yelkang cho'mildi
Qora soching yomg'irlariga!
Begonaday turdi olisda,
Cho'chib boqdi senga tiyramoh.
Senday g'amgin fasl bo'lishga
Qaydan jur'at topa olsin, oh!..



* * *

Ertaksevar jonim,
Sen meni o'ldirmoq istaysan.

Men ming bir kecha ertak aytaman.
Ming bir kecha
Birinchi nigohning ertagini.

Ertaksevar jonim,
Meni o'ldira qol.

Ammo takror aytaman –
Ko'zlarning ilk uchrashuvidan boshqa
Muhabbatning
Ertagi yo'qdir.



* * *

Tazarru kerakmas:
Chin ham, Yolg'on ham.
Tazarru — beumid,
Chin — ulkan alam.
Yolg'on — xushomadgo'y —
Fosh bo'lgay og'ir...
Ko'zingni bir ko'rsam
Bo'lardi oxir...

Hasratingni haydab
Ketakzolmadim.
Angladim — hasrating
Jonimdir manim.
Begunoh — gunohni
Yaratgan shayton...
Ko'zlarim ko'zingga
Tushsaydi bir on.

Boshimni shamolday
O'raydi taqdir.
Sharhla — sharhi yo'qdir,
Chizgin — betasvir.
Hamma so'zlar ayon
Ming yil muqaddam...
Mayli, tushlarimda
Ko'zingni ko'rsam...

Yurak dashti uzra
Qayg'u to'zoni.
Ufqni yiqitgan —
Yo'qdir to'g'oni.



Ko'ksimni dunyolar
Kelmoqda bosib...
Ko'zingga bir boqmoq
Bo'larmi nasib?

Ko'zingni bir ko'rsam,
Ko'rsam ko'zingni –
Termulsam yo'qotib
Aql-u so'zimni.
Balki bu oxirgi
Og'riq – bahs edi...
Taqdir qandayligin
Ko'rsam bas edi.



* * *

Viqorlisiz o'zgalar bilan,
Mag'rurlikning go'zal arshida.
Ammo ma'yus tortasiz, erkam —
G'ussalisiz mening qarshimda.
Bosh egasiz munglig' bir tarzda,
O'ltirasiz unutib o'zni.
Men bilan hech tushmaysiz bahsga —
Aytolmaysiz keskin bir so'zni.
Umrin uzra uzun chaqinsiz,
O'zi yonib — topgan qanoat.
Yuragimga juda yaqinsiz,
Hayotimdan olissiz faqat.



* * *

Tun bo'yi guvladi taqdir shamoli.
Tushimda,
Jonimda,
Qalbimda esdi.
Uchdi sukunatning baxtli kamoli,
Jimlik vujudini shovqinlar ezdi.
Demagil zo'ravon shamolni haqli,
Toshday yopishmagan yo'llariga – men.
Hatto
Ikkimizning
Kichkina baxtni
Ushlab qololmadim qo'llarimda men.



* * *

Ha, dunyo ham senga oshiqdir –
Har maqomda etadi imo.
Turishlaring ammo bosiqdir –
Sen magʻursan, goʻzal fuqaro.

A la Paris iqtibosida –
Nagʻmalangan jami libosing.
Sen dunyoning iltimosiga –
Parvo etmay qadamlar bosding.

Tuflilarning daʼf urishida –
Yurishlaring ozoda, tekis.
Bosh aylanish, lab qurishiga
Mumkin emas yurakni egish.

Sen haqingda orzu-yu reja
Hayotimga zarra inmadi.
Navoiydek yigʻladim: “Kecha
Kelgum...debon...gulroʻ kelmadi”.

Sen oʻtasan – taqdir almashdi,
Sen oʻtasan – qismatlar qaro.
Boqay desam, koʻzim qamashdi –
Yorugʻlikсан, goʻzal fuqaro.



* * *

Sening o'jar lablaring alvon.
O, shafaqmi erka taoming!
Yo shafaqni yozgi tong misol
O'pmoqlikni etding taomil?

Ikki qoshing – ikkita qanot.
Ikki ko'zing – ikki umidqush.
Qay umrni aylading barbod,
Labing nega qondir, yirtqich qush?

Sendan faqat bir so'z kutarman,
Hijrondaman – unutib o'zni.
Qanday makr qilichi bilan
Shartta kesding labdagi so'zni?

Dunyo kabi ko'nglim yorishsin,
Qon ichida kulgu yarat... Kul!
Lablarimda manim ochilsin
Shafaq rangli g'uncha – qizil gul.



* * *

Qay baloga
Meni etding band?..
Bog'lar aro kezaman mahzun.
Yuragimdan oqar tinmay dard —
Navoiyning satriday
Uzun.
Falak uzra
G'amdan qorayib
Yig'laguday turibdi bulut.
Jonga yetar dunyo torayib —
Taqdir sori
Chiqaman kulib.
Yo'qligingga ko'nikaman jim —
Qorning oppoq shivirin tinglab.
Yuragimga qor yog'ar betin,
Navoiyning satriday
Yig'lab...



* * *

Daraxtlar ortidan qorlar to‘kildi,
Tumanning ortidan yuz ochdi quyosh.
Qismatim qaytadan yana o‘qildi –
She’r yozdim
 sen haqda
 yig‘lab –beovoz.

Shu ko‘yi o‘ltirdim devona, giryon –
O, qani yo‘qlikning qa’riga cho‘ksam...
Muhabbatning yo‘li qalbdami hamon? –
Faqat qalbdaman-ku...
Nega sen yo‘qsan?



* * *

Ko'zimga tushdi quyosh.
Tong yuvilgan — ozoda.
Qo'zg'olma. Uxla bir oz,
Yurak — erka shahzoda.
Boqqa qo'nmish — bir tekis —
Qor — billurtan farishta.
Tashqariga chiqay, qish,
She'rlarimni olishga...
Boshimga, tangrim, to'kding
Nur-u qorni bu choqda.
Shunday baxtliman... Qo'rqdim
Yurakni uyg'otmoqqa.



QANOTLI KECHA

Anglamadim: qorlar yog'dimi,
Yo Yer uchdi samovot sari,
Uchqun-uchqun dunyo bag'rini
Tirnab o'tdi daraxt barglari.

Xiyobonlar, daraxtlar uchdi,
Imoratlar uchdi, ko'chalar...
Tilingancha derazalari
O'zin otdi ko'kka kechalar.

Daryolar ham uchdi – osilib
Irmoqlari yonboshlariga...
Bir silkinib men ham qo'zg'oldim –
Qorlar qo'ndi ko'z yoshlarimga.

Va hayqirdim ortimga qarab
(Ayriliqda o'rtandi dilim):
–Uchgin!.. Bir uch!.. Uchsang-chi yayrab,
Qanotsizsan nega, sevgilim?

Qor bo'ralar... Sen – olis sharpa.
Atrofingda guvillar shamol.
Yer ham uchdi men bilan birga
Muzlab turma!.. Sen ham ucha qol!

Sen yolg'izsan. Yolg'izlik –yovuz...
Men zaminga yolvorib aytdim:
–Qolib ketdi yolg'izim yolg'iz–
Meni tashla! Yoniga qaytgil!..

...Derazadan tongda boqasan,
Quvonchingdan ko'zing yaraqlar:
Yer – joyida. Bog'larda purg'am
Qor kechinib turar daraxtlar.



Sen qiynalma!
Yashagin erkin,
Chorbogʻlarda qorlar ot begʻam.
Senga qishni, zaminni berdim—
Gard tegmagan qorlari bilan.

Mangu vido!
Sevganim manim,
Sogʻinganman... Yurak toʻymaydi...
Yerga tush deb qiynaydi jonim,
Qanotlari ammo qoʻymaydi.

Falagimda men ham baxtiyor —
Yulduz-u qor aylandi boshda...
Bu yuksakda hamma tole bor,
Sendan boshqa... Bir sendan boshqa.



* * *

Qorday yog'ib keldi ishq,
Izg'irinday so'zladim.
Qorday yog'ib keldi ishq,
Ayozida muzladim.

Qorday yog'ib keldi ishq,
Ko'chalarda qoldim men.
Qorday yog'ib keldi ishq,
Muzlab-muzlab yondim men.

Qochma mendan, taqdirim,
Ta'nam yo'q — alamim bor;
Ayt, qorni eritdi kim,
Nega erib ketdi qor?



* * *

Qor uchqunin kaftida
Tutadi daraxt.
Men kechikdim, aftidan...—
Kuz ham yo'q, yorab!

Qor — to'zonli. Ko'rinar
Ruhing tumandan.
Yuksagingda men ham bor —
Kechdim tubandan.

Sen kutgansan... biroq qor
Yutdi izingni.
Ayt, yurakka berasan
Qachon izmingni?

Qayerdasan? Chorlagin.
Mag'rurlik — bekor.
Faqat sening yelkangga
Yog'ar og'ir qor.



* * *

Quyosh charaqlaydi — yaratqu tarzli —
Keng zangor afsunni tutgancha kiftga,
G‘ayrati beqiyos — kurrai arzni
Bog‘lab ko‘targusi bir zarrin ipga.
Yomg‘irso‘ng o‘tlarning badani toza.
Shamolga — taranib — o‘randi daraxt.
— Men seni sevaman! — soldim ovoza,
O‘tloqqa yiqildim — shashtimdan karaxt.
Men bu uchta so‘zni kim uchun aytdim?
O‘zim ham bilmadim — hayqirdim toshqin.
Har jonli giyohdan jarangim qaytdi —
Yiroq xayollarda bir balqdi aksim.
Cheksizlik burilib menga qaradi,
Olisga surildi yo‘qlik sarhadi.
Mening iqrorimdan borliq yayradi —
Cho‘zilib ketganday yashash muddati...
— Men seni sevaman! — soldim ovoza,
Tebrandi falakda taqdir beshigi,
Bu holim dunyoga buyuk darvoza —
Ezgulik kirguchi najot eshigi.
O‘tloqda yotibman bahorlarga teng.
Sening sog‘inchingga bor dunyom to‘ldi.
“Men seni sevaman” — shivirlading sen —
Menga o‘z tovushim qaytganday bo‘ldi.



* * *

Mening yuragimdan boshlandi bahor,
Qor ketdi — jonimni yomg'irlar quchdi.
Bahor xabarini etgani oshkor
Qalbimdan qalblarga turnalar uchdi.

Bugun ko'kka boqib qoldim sarosar,
Xazonda g'amim ko'p — aytgim kelmadi.
Mening yuragimdan uchgan turnalar —
Mening yuragimga qaytib kelmadi.



* * *

Ezilib-ezilib yomg'irlar yog'di,
Ezilib-ezilib ado bo'ldi jon.
Kechani gohida chaqmoqlar yoqdi,
Gohida "oh" urding — o'rtandi jahon.

Umrning qorong'u ko'chalarida
Muhabbat-u nafrat horg'in kezindi.
Bahorning yomg'irli kechalarida
Ezildi... ezildi... yurak ezildi.

Taqdirning beomon shiddat yomg'iri
Aytar vidomizni aytdi tonggacha.
Endi bu yomg'irning yo'qdir oxiri —
Ezilib yig'laydi so'nggi ongacha.

So'z kimga kerakdir? Lab ochmagin. Jim.
Taqdir so'zga loyiq qoldirmadi sir —
Men ham yomg'ir kabi bir yog'ib o'tdim,
Sen ham yomg'ir kabi yig'lab o'tding bir...



* * *

O, bog'lar gulladi,
Ilidi shamol.
Yomg'irga yelka tut — o'sasan, yurak...
Sen qanday yaxshisan —
Mana, bermalol
Aylanib-aylanib
Turibsan, falak.



* * *

Yorug'lik tunga teng keldi —
Yetishdi navbahor fasli.
Ja'mi jim-jitlarim unli,
Ja'mi og'riqlarim sasli.

Gar xazon ko'nglig'a yetdim —
Meni xazondin o'ylama,
Kurtaklar bag'rida dardim,
Ruhim chaqmoqdadir asli.

Boshimdan yog'sa oq yomg'ir,
Quyosh sochsa ziyolarkim —
Daraxtdek novda oturman —
Samovotga cho'zib dastni.

Qandog'kim chappor gulladim —
Gullashdan armon qolmadi! —
Gulim bori umidlig'dir,
Navdamning barchasi — shashtli.

Tiriklik! Xurram o'sginkim,
Bul hayot ildizim o'ldi,
Bahorning avjida bul kun
O'limning borligi bahsli.

Ruhimday o'ssam, termulsam,
Turmush ro'yig'a yuksakdin,
Fig'on etsam: — Nechun, tangrim,
Vujudning qismati pastli...



* * *

O'tib borar jonga — ko'zimdan —
Sovuqqina yomg'ir nayzasi.
Tushunmaydi "Vido" so'ziga
Bu bahorning yashil maysasi.
Ko'ylagingday ho'l bo'ldi yurak,
Shamollarday muzladi dardlar.
Mening maysam! Olov muborak! —
Ko'kda chaqmoq xanjarin charxlar.
O, bu falak! O'tlarmi otar —
Qilichlaydi jonni dog'ingda...
Hamma daraxt lovullab yonar
Ko'nglimdagi yashil bog'imda.
Men — bog'imdan mosivo odam,
Kezinarkan olam aro jim,
Bu hayotga behush talpingan
Seni — beg'am maysani sevdim...
Sevdim! Bilman, holim ne kechar? —
Gar angladim g'amning zaylini...
Boshlaringdan — men ham — bir kecha
Yomg'ir bo'lib o'tsam, maylimi?



* * *

Bolari tentirar – gullarga cho‘ri,
Kapalak jonsarak – boqqa xizmatkor.
Quyoshning tillarang jismini so‘rib,
Namxush havolarda ko‘karar bahor.
Yurgin, yurib o‘tgin ko‘ksimdan, shamol!
Tiriklik ne ersa, xoki poyiman.
Bugun toshlarda ham ko‘rguvchi kamol,
Dunyoning toshqinsel telba soyiman.
Menga begonaday turmagin hargiz,
Yam-yashil jahonim, ne yumushing bor?
Qara, hatto ari gullarga kaniz,
Hatto kapalak ham boqqa xizmatkor...



* * *

Zaminda salqin oz,
Ko'kda bulut oz.
Daraxt ko'lkasida
Uxlab yotar yoz.

Bir parcha yerga men
Suvni taradim –
Bog'dan qarzga olib
Shamol tarog'in

Mevasi bir tomchi
Arg'uvoni may –
Bargin suvga yozdi
Erka qulupnay.

Yo'ng'ichqa o'ynaydi
Muzday suv kechib.
O'ltirdim –
Bog'langan
Ko'nglimni yechib.



* * *

Bog'da nur-u soya uxlar ayqashib,
Qushlar qo'shiq aytar dilgir maqomda.
Toza havolarga yuzin chayqashib,
Rang-u bo'y baxsh etar gullar jahonga.
Yo'ng'ichqaning sapsar gullari – shoda,
Mevalari o'tli – pamildorining.
Ariqda tug'ilgan go'dak shaboda
Noxos chertib o'tar ko'ngil torini.
Daraxtday yam-yashil ko'nglim bu lahza,
Dilimga qo'ngan so'z qushday uchar shahd.
Xuddi baxtday qalbgga soladi larza
Yo'ng'ichqa oralab o'tayotgan Vaqt.
Ko'nglimga nur to'la kengishlik tushdi,
Yuragim his qildi mangu bayotni.
Nozik bellaridan ohista quchdim,
Lablaridan o'pdim go'zal Hayotni.
Ikkimiz jo'nadik – bog' arodir yo'l,
Bog'dan o'tsak hamki, hayot qaytmadi...
Unga talvasada uzatmadim qo'l,
Mensiz ketajagin u ham aytmadi.



* * *

Ariqlarda oqib borar oy –
Ariq borar ko'tarib fonus.
Oydin tunda – kechganicha loy,
Pishqirmasdan suv ichar poliz.

O, qanaqa ertakdan tushdi –
Yonarqurt-ku bu tirik olov!
Uning mitti shafag'in quchdi,
Yulduz kabi to'kildi qirov.

O, naqadar farog'atda dil! –
Dil oy kabi sochadi ziyo.
Meni nega qiynading qirq yil,
Baxtli bo'lish oson-ku, dunyo...



* * *

Kun bo‘yi daraxtlar quyoshda turdi,
Yashil yelkasini tobladi chorbog‘.
Kiftimda soyalar titranib yurdi,
Bog‘da seni eslab yig‘laganim chog‘.

Moviy may – osmonni ichdi saraton,
Yuztuban yiqildi yo‘ng‘ichqazorda.
Mening yuragimni o‘rtadi gumon –
Qolib ketmadingmi, erkam, bahorda.

Shamollar keldilar boshimga yurib,
Bargday hilpiradi yurakdagi dog‘.
Xudoga ming shukur... Tirikman... Tirik...
O‘limdan yomondir bu sog‘inch biroq.



* * *

Chinorlarni tizdim ko'cha chetida,
Ariqlarda suvlar oqizdim – zilol.
Osmonga qaroqchi qo'ydim... Yettita! –
Hamma tasodifni yengar. Bemalol.

Falakka qarasam – ko'rindi ro'ying,
Daryolarga boqsam – yuzing qalqidi.
Bog'larning qo'ynida sollandi bo'ying,
Sog'inchning ichida oyday balqiding.

Kelgin, qismat g'avg'o solmasdan avval,
Umidni tasodif yutmasidan kel.
Chinorlar tik turib tolmasdan avval,
Chinorlarning umri o'tmasidan kel...



* * *

Shamol
Ayvonimga
Yaproqlar sochdi.

Shamol
Eshigimni
Ohista ochdi.

Derazamga urdi
Barglar galasi.

Cheksiz
Huvilladi
Ko'nglim dalasi.

Nedandir umidvor,
Nedandir g'amnok —
Tashqari chiqolmay
O'ltirdim uzoq...



* * *

Yomg'irdan so'ng ko'chalar nafis,
Nur chayqalar fonuslarida.
Yuragimga qaytadi aziz
G'ussa – unut olislarimdan.
Shamol kuzni oralar bog'da,
Ho'l barglarni boshimga otar.
Yurak og'riy boshlagan chog'da
Ruhga yetmay tumanlar botar.
Bu kuz tuni yo'ldan adashdi –
Naq yurakdan otin soldi Vaqt.
Taqdirimga jim aralashdi,
Xazon kechib yig'lab yurgan baxt.
Men ko'chada shamolday kezdim,
Har daraxtga sochdim tanimni.
Bu bog'larda baxt bordir – sezdim,
Va unutmoq bo'ldim g'amimni.
Men seni hech ko'rmaganman, baxt...
Dilga kirdi shubhali g'uluv.
Ko'klamimdan yiroq qochgan shahd,
Kuzakda ham yo'qmi uchrashuv?
Butoqlarga jonimni tildim,
Intiqligim tolega – chindir.
Bu kechada baxt bordir – bildim,
Baxt bo'lmasa... Yig'lagan kimdir?



* * *

Havoda uhdilar
chinor barglari,
ko'chaga tushdilar to'zg'ib sarosar.
Kengaydi dardimning
og'riq hadlari –
endi men qayg'uman
kuzga barobar.
Chinor barglarini terib o'ynading,
Xazonlig' dastiga
bekitding yuzni.
Ammo biror bargni menga qiymading –
g'amgin pichirlading:
“sevaman...
kuzni...”



* * *

Osmon ko'm-ko'k.
Quyosh yaraqlar.
Kuz g'amini ochdi yoruqqa.
Xazon tushlar aro alahlab,
Sariq barglar oqdi ariqda.
Bog'ning bebarg kiftida hazin
Titranadi quyosh qo'llari.
Qalb o'zgartar yashamoq tarzin –
Buriladi she'rga yo'llari.
Aralashar ruhimga hayot –
Zilligi yo'q, sumbati – harir...
Men hammadan bo'laman ozod,
Faqat vaqtga tushaman asir.
Uning botin harakatini
Vaznlarga solarkan yurak,
Tutolmayman ruh shiddatini –
Yuksaklarga boraman qulab.
Talvasada o'sar qanotim,
Faqat rostni pichirlaydi lab.
Shiddatimda to'xtar hayotim,
Bir lahzada bo'lajakman sarf.
Osmon ko'm-ko'k.
Yaraqlar olam.
Kuz g'amini sochdi yoruqqa.
Umrin bilan ja'mlanay desam,
O'tolmayman mitti ariqdan.



* * *

Ko'kdagi tirik bulut
Ajdarhoning haykali.
Terak osmonni artar
Kuz yelida chayqalib.
Chayqalib borar ko'nghim.
Chayqalib borar bardosh.
Chayqalar tushim, o'ngim.
Chayqalar ko'zimda yosh.
Chayqalar yorug' olam.
Chayqalar qora kecha.
Chayqalar dilda nolam —
Tilinga yetmay o'char.
Derazamda sollanma,
Mehribon ukam terak!
Ko'nghimni supirmoqqa
Bo'ying yetmasa kerak...



* * *

Bo'ronda adashgan tog'
O'ltirar qorga botib.
Bo'rilar hurkitgan chog'
Yiqitganmikan oti?

Qisib kelar qorong'u,
Yaqin kelar vahima.
Izg'irin chalar cholg'u –
Daralarning chohida.

– Yur otimning izidan –
Bizni qo'llasin nabi.
Tog' qaltirab ortimdan,
Ergashadi it kabi.

– Hozir gulxan yoqaman...
Xudo qo'llasa magar –
Senday tog'lar o'lmasdan,
Bahordan kelar xabar.



DASHT VA TOG‘ HAQIDA QISSA

Qalbinga to‘kildi sog‘inch – xazonrez,
Jonimga yetishdi qaro sovuqlar.
– Tog‘im, umr ketmay uchrashaylik tez –
Boshimda aylandi qo‘rqinch chovutlar.

Tog‘im qolgan yoqqa ayladim nolish,
Vohkim, dardim – baland, nolishlarim – past...
Ufqdan mung‘ayib keldi bir tovush:
– Men ketsam bir o‘zi qoladi-ku dasht..

Taqdirdan nariga gullar to‘kildi,
Taqdirning ichida yondi saraton.
– Umrning kitobi qariyb o‘qildi –
Dashtim, ko‘rishaylik, tezroq kel, bu yon!

Dashtim qolgan yoqqa ayladim nolish:
Vohkim, umrim – qisqa, nolishim – uzun...
Ufqdan aylanib keldi bir tovush:
– Mensiz bu tog‘laring qanday ko‘rar kun?..

Kuzak o‘tib ketdi ko‘chamdan horib,
Hayot-u mamotning qolmadi farqi...
– Ikkingiz ham keling ufqni yorib,
Ketarning yo‘llari bir tortsin salqi!

Tog‘im-u dashtimning o‘ylari necha,
Ammo qismat oni aytdilar chin bayt:
– Biz ketsak, Boysunning holi ne kechar? –
O‘zing kel, og‘ajon! Og‘a, o‘zing qayt!

Sizning chorlovingiz so‘ngimga yetdi,
Siz dunyo ko‘rgansiz, so‘ylangiz bu dam:
Boysundan kelishga bir umrim ketdi,
Qaytish ayirgaydir necha umrimdan?



Yuksak og'am o'zin bulutga soldi,
Vujudini tildi sonsiz daralar.
Kengish og'am kengish xayolga toldi,
Cho'kdi tumanlarga cheksiz dalalar.

Kamtar bu sukutda ko'pdir haqiqat –
Unda zil hayotning surati zohir:
Boysunda tog' bo'lmoq qanday mashaqqat,
Boysunda dasht bo'lmoq naqadar og'ir!

Lahzalik mavjida hamma javob hal,
Yuzimga urildi tog'-u dasht yeli:
– Bir bor yashamoqqa garchi qodirsan,
Qo'rqmagin, ovozing keldi-ku yetib...

Ovunmay yig'ladim Navro'z kelgan tun,
Tun-u kun teng boqdi garchi royimga...
Bir tog' bo'lolmadim boshingda, Boysun,
Bir dasht bo'lolmadim, Boysun, poyingda.



* * *

Gulxan yonar tun oʻrtasida,
Koʻylaklari kukun — yalangʻoch —
Qorongʻuning qoq oʻrtasida —
Zulumotni yamlab yutar — och.
Shiddat koʻpdir archa oʻtinda —
Yuzni oʻtdi uchquni tirnab.
Oʻltiraman suyanib tunga —
Oʻmganimni yoruqqa tirab.
O, dahshatli dunyoman hozir!
Asir tushgan zulmatga yelkam,
Yorugʻ esa — aziz xavotir —
Issiq bagʻrin koʻksimga bergan.
Qoʻyib yubor, qoʻy kaftimni, tun! —
Noxos qaror qoʻzgʻoldi tanda...
Tundan ozod boʻlmoqlik uchun
Bir maskan bor... faqat... gulxanda.
Ammo choʻkdi yuragim mungga —
Sen nimasan jonda uringan?
Orqa miyam suyangan tunga,
Yorugʻlikka ruhim urilgan...



* * *

Kuz zabt etgan qishloqda oqshom.
Xazon urdi
Shamol betiga.
Yolg'izgina uylar —
Beorom —
Tiqilishdi ko'cha chetiga.

Suvoriylar qaytdi uloqdan,
O'choqlarda
Olov to'ladir.
Oh, do'mbira! — bo'zlab —
Uzoqdan —
Alpomishni izlab jo'nadi.

Qozon qaynar —
Xudoga shukur...
Bu yurakmi
Dunyo talashgan?
Hamma uylar —
Beso'z,
Beuzr —
Falaklarga qarmoq tashlashgan.

Ekranlarda to'lg'onar olam.
Alpomish yo'q...
Chalmagin,
Yetar...
Qozon qaynab turibdi,
Bolam,
Do'mbirangni sindirsak, netar?

Bolam,
Fe'ling juda ham o'jar —
Takrorlaysan qanday tushlarni?



Do‘mbirangda
Bir azob o‘sar,
Sinamoqqa Alpomishlarni.

Umr bergan otangman.
Botir,
So‘z aytaman men ham beg‘araz:
Bolam, sening qo‘shig‘ing chokdir,
Alpomish ham unga kirolmas.

Dunyo bilan bahslashmagin,
Qayt!
Armoningni shamolga yedir...
Kuching bo‘lsa,
“Oh” urmasdan ayt –
Qaynayotgan qozonda nedir?



* * *

Yam-yashil tanini shamol supurdi:
Ming rang gullar ichra to'lg'anarkan mast,
Bahorni simirdi, mayday simirdi –
Maysa-yu yong'irda chulg'angan keng dasht.
Boshida o't sochib yorildi bulut,
Sel hidi ufurdi soylar betida.
Kimningdir bag'ridan dog'ini yulib,
Qizg'aldoq qizardi dashtning chetida.
Ko'lmakda “yarq” etgan yong'in – chaqindir,
Bag'riga to'shalgan – kamtarin osmon.
Shunday kun yashamoq baxtga yaqindir,
Shunday kun eriydi tog'larday armon.
Yohuy!.. Tiriklikning yo'qdir poyoni...
Mangu Hayot, ko'kar! Gullagin! Yaral!
Mening yuragimdan o'tayotgan oni –
Bahor shiddatidan bitmoqda yaram.

Bahorgi baxtda ham chegara rasm –
Yondirmay qo'ymaydi dashtning og'ushi.
Qirlarning ortidan taralar hazin
Ko'ganli qo'zining nochor tovushi...
Ko'zimdan yo'qolgin g'amning siyog'i!
Dashtga yarashiqman – bermagin ozor.
O, men ham bahorning unut qiyog'i –
Shu lahza dasht uzra ko'karmog'im bor.
Garchi yuragimda xazonlarim mo'l,
Garchi uzoq ketdi umrning fasli,
Dashtda sanqigan Vaqt, bir uzatgin qo'l,
Qayta ko'karmoqlik mumkin emasmi?..
Bahorning yam-yashil saltanatida
Turnalar xayolday ko'kda tizildi.
Mening dardlarimning qat-qatlaridan
Kamalak uzildi – yurak uzildi...

HAKIM AT-TERMIZIY MAQBARASIDA

...Najot so‘rab yo‘qladilar, anda qabrlaridan “tirikmiz” degan sado keldi. Aytadurlarkim, Termiz atog‘liq shahar shu sadoga bog‘liqdir...

Sim to‘rlar chekindi. Agar Amuga
Qo‘lni cho‘zar bo‘lsam, yiqitmasmi o‘q?
Bobo, butun umrim mastlik tongida,
Mana, jonim ochiq – qo‘rg‘onlari yo‘q.

O‘psam tuprog‘ingni – makruh bo‘lmagay,
Tiz cho‘ksam, tizimdan qochmagaydir yer.
Mening tinchligimga ammo ko‘nmagay,
Zimillab yopishdi qalb bo‘g‘ziga she‘r.

Podshohligim yo‘qdir shahar qurdirsam,
Yohud tosh qo‘ydirsam oyatlar o‘yib.
Ming yillik dardlaring jonim kuydirsa –
Qurbonlig‘ etaymi o‘zimni so‘yib?

U yon – Chag‘niyon, bu taraf –Termiz –
Beshikday tebratar tuproqqa yotsak.
Tarix qavat-qavat to‘shalgan yermiz,
Qay asr ko‘madi oy kabi botsak?

Qalbmida qurilar har dam ming shahar,
(Qog‘ozga yetadi arang shovqini),
Qo‘rqoqlar imonin yutib yuborar,
Aytsam, Vaqtga yo‘ldosh yurmoq zavqini.

Uchib borayotir – qalbm – Samandar –
Goh kulman, goh olov – yig‘layman iz-iz.
Asrlar qa‘ridan tasalli kelar:
“Yig‘lama, tirikmiz. bolam, tirikmiz”...



* * *

Seni ko'tarib toldi –
Horg'inlikda bu olam.
“Yo, Olloh” de, g'ayrat qil –
Dunyoni ko'tar, bolam.

Seni ko'tarib toldi –
Horg'inlikda bu olam.
Hech bo'lmasa, o'zingni
Ko'tarib yur, jon bolam.



MASHRAB

Zamon barvaqt bo'lmay deb taslim –
Yolg'on so'zga pinhon suyangan...
Men zamonning eng asil rasmin
Pinhon o'rab qo'ydim miyamga.

Menga ayon harom-u halol –
Chigallik yo'q, yechilgan tugun.
U suratni olib, bemalol –
Hatto o'lib ketishim mumkin.

Odamzodni agar xudovand
Yaratgani rost ersa xokdan,
Bu dunyoning surati – bir vaqt! –
O'sib chiqar she'r degan chohdan.

Ammo shubha kezar olamda,
Miyam og'ir ranglarga to'liq...
Zil boshimni qonli yelkamga
Qo'yolmaydi titragan qo'lim.



* * *

Hali cho'kmadi yelkam,
Yenggani yo'q bu hayot —
Men hamon tushlarimda
Uchayapman — beqanot.

Yo'q, hanuz qo'rqqanim yo'q —
Na kunduz-u na tundan.
Men hatto hushlarimda
Yerga qo'nganim qo'ngan...



* * *

Hech narsa yo‘q qo‘limda,
Kaftim uxlar beto‘fon.
O, dengizmi? Ko‘nglimda! –
To‘lg‘onadi beomon.
Moviy kenglik qoshida
O‘ltiraman so‘rab jon.
To‘sh urib g‘am toshiga
Cho‘kkan kemaman – ayon.
To‘lqinlarning zarbidan
Tan og‘riqqa to‘lgandir..
Men bir ulkan darddirman –
Ko‘nglim mendan ulkandir.



* * *

Necha kun yashaysan,
Aytgil, necha kun?..
Ko'p go'zal ochilding,
Jonim atirgul...
G'amimni – tushuntir! –
Aytayin desam,
Besh kunlik umringda
O'ynaysan – sho'xsan.

Kelgin, bir hidlayin
Lablarim qo'yib...
Sen gullab o'tasan,
Men esa kuyib...



* * *

Ko'zlaridan uyqusi arib,
O, chaqaloq tamshandi xiyol...
Yoqasidan oyni chiqarib,
Jim egildi beshikka ayol.

Qanday go'zal dunyo engashdi,
Chaqaloqqa to'linoy tutib.
Dunyolarga go'dak tenglashdi,
Oydan yorug' yog'dular yutib.

– Uxla, bolam, uxla, tayanchim,
Seni kimki sezmas – ayanchli.
Menday falak yiqilsa, yorab,
Beshiklaring mudom suyanchdir.

Zulumot tinch o'chdi tubanda,
Dunyo og'ir kechani otdi.
Oq ko'ylakka – harir tumanga –
Tong ko'ksiga to'lin oy botdi.



* * *

Meni tashlab ketmang,
Do'stlarim — qushlar!
Mensiz samovotda
Ko'rmaysiz tushlar.

Sukutga boqasiz
Yurakni o'rtab,
Mensiz sizga hech kim
Aytmaydi ertak.

Vodiyima-vodiy, ey,
Sargardon gala,
Mensiz — uchmoqlik ham —
Chaladir, chala.

Aylanib manzilga
Yetganingiz on —
Taqdir ulashmagay
Ilohiy unvon.

Yigirma to'qqiz qush... —
Jaranglar hazin...
Semurg' bo'lolmaysiz
Mensiz, do'stlarim.



* * *

Yulduzlar o'tida boshim mash'aldir,
Erning zax qa'rida oyoqlarim – muz.
Yuragim – navro'z-u ruhim hamaldir,
Jonimda – saraton, qismatimda – kuz.

Turfa faslim aro men seni suydim,
Turfa makonimda – aylading taslim.
Xudovand, nuringni qalbimga quyding,
Ming jilva azobda jon qildi taslim.

Dunyo o'tib borar jonim oralab,
Quyoshim oqshomga tutmoqdadir yuz.
Qish o'tdi, bahor-u yoz o'tdi, yorab!..
Yorab! Mening bilan ketmaysanmi, kuz?..



* * *

O'rgimchakday dayri dun
O'rab oldi ro'zimni.
Qilich tutib — tun-u kun —
Ozod etdim o'zimni.

Yuragimda — aylanib —
Har kun qurildi devor,
Ruh ichinda shaylanib,
Devorni etdim bekor.

Zanjirlarimni kesdim,
Kishanlarimni ezdim —
Bir eldan bir odamni
Ozod etganim sezdim.



* * *

Neki zalvoridan ayrildi – o‘tdi.
Ruhim sokinlikka bandlig‘ kezlari –
Tungi derazasi nur sochib – o‘tlig‘,
Uchar bolalikning cho‘ng poyezdlari.
Uchar mendan ayri yam-yashil bog‘lar
(Daraxtlar bir-birin yig‘lab quchadi),
O‘zini bir mitti qush kabi chog‘lab,
Boshida qor to‘zg‘ib tog‘lar uchadi.
Cho‘zilib-bukilib uchar yo‘llar ham:
Ko‘ksinga toshlari tushadi bexos –
Beovozlik ichra – ohista, mubham –
Tushadi beog‘riq, tushar beovoz.
Go‘dakligim tushi – otam kezadi,
Bog‘ni kezgan kabi ko‘kni oralab.
Uning qo‘llarini kiftim sezadi,
Faqat zalvorini sezmayman, yorab...
Olis do‘stlar uchar – bulutday yengil,
Yovlar tuman ichra ketmish benishon.
Do‘st-u dushmanimni, demak, kechirdim –
Demak, do‘stlig‘-yovlig‘ o‘tdi beomon?
O, sen ham o‘tdingmi, mening bechoram? –
Tillarim o‘rtanib “tangrim” degan payt,
Vujudim, men seni sezmadim hech ham,
Ruhim zalvorini his qildim faqat.



O'TAR DUNYO BALLADASI

– Olib keting meni ham... Axir,
Bu tor dunyo ko'nglimga botar...
– Bolam, buncha bo'lma besabr... –
Kun botarga ot soldi ota.

Nasib emas mag'ribdan qaytmoq –
Ketgan kelmas yana dunyoga.
– Ota, sening izingdan biroq
Men boraman po-yu piyoda.

Piyodaga toqati yo'qdir,
Vaqt egarga o'tqazdi mahkam:
– Ko'zim ham to'q, ko'nglim ham to'qdir –
Otingni sur, yigit, xotirjam.

O'zim senga bo'lay jilovdor,
Ko'rsatayin eng qisqa yo'lni.
Tezlikka ber, jonim, e'tibor,
Turg'unlikka uzatma qo'lni...

Vaqt shunaqa kuyladi yalla,
Vaqt shunaqa tutqazdi sharob.
Vaqt do'stingday ko'ringan palla,
Yovliklari tuyuldi sarob.

Suvoriyning chaqnadi ko'zi,
Suvoriyning g'ayrati toshdi –
Vaqt irg'ishlar bo'ynini cho'zib,
Vaqt yillarning ustidan oshdi.

Ko'kda arvoh yig'ladi giryon,
Fig'onidan titrandi olam.
– Bolam, menday bo'lmagin nodon –
Qamchi bosma otingga bolam!



Ot boradi bahordan o'tib,
Ot boradi yozda yaltirab,
Ot boradi kuzakni tutib,
Ot boradi qishda qaltirab.

Ko'kda arvoq charx urar giryon,
Zirillaydi ruhida olam:
– Bolam!.. Bolam, bo'lmagin nodon!..
Mahkam tortgin jilovni, bolam!..

Otlig' vayron boqar falakka:
– Yuragimni, ota, ezma, bas!..
Hol qolmadi, axir, yurakda –
Bu tulporni to'xtatib bo'lmas.



* * *

– Ertak tugadi. Hamma
Murodiga yetishdi...
– Yetishgan so'ng murodga
Yana qayga ketishdi?
Muroddan keyin nima,
Baxtdan keyin nima bor?
– So'rab nima qilasan,
Uxla. Savol na darkor...
– Bilmoq istayman, ayting –
Go'dak aqlim besabr.
Murodiga yetgan so'ng
Qayga ketadi taqdir?
Nechun, ona, yashirib
Yoshingni jim to'kasan?
– Aytolmayman, bolajon,
Aytaversam, qo'rqasan...



* * *

Men seni har kuni ko'rgim keladi,
Ko'rmagan kunlarim o'lgim keladi.
Hasratning beeshik dunyosi aro,
Sensiz bu ro'zg'orim bo'larkan qaro —
Abad qarolig'da so'ngim keladi.

Men seni har kuni ko'rgim keladi:
Kutaman — tushimmas, o'ngim keladi.
Manim jim nidomga etmasdan karam,
Hatto so'z aytmasdan o'tib ketsang ham —
Shu so'zsiz nidoga ko'ngim keladi.

Men seni har kuni ko'rgim keladi,
Sen kelsang, vujudga ko'ngil keladi.
Tosh taqdir yumshaydi — eriydi qorday,
Go'yo hayot borday, tiriklik borday —
Ruhga avval yog'du, so'ng gul keladi.

Men seni har kuni ko'rgim keladi.
Ko'zingga tikilib turgim keladi...
Sendan so'ramayman mangu hamrohlik,
Yoningda — o, mudom qalbingga bog'liq! —
Bor-yo'g'i bir umr yurgim keladi...



* * *

Bu ayol chiroyli,
Dono, mehribon –
Sog'-u omonligim
So'raydi har on.
Tun-u kun xat yo'llar,
Mehri – sahovat.
She'rlar tinglashga ham
Topadi toqat.
Ishni bitirar-u
Yugurar ishga.
Bu ayol hayotda,
Ko'ngilda, tushda...
Mayli, "sevaman" der,
Mayli, yig'laydi...
Meni unitishin
Hali bilmaydi.



NAVOIY

Bir qarasam,
tashqarida kuz,
bir qarasam bahor;
goh yozda nozlanib yotar tashqari,
goh qorda qaltirab...

Har lahzada – shu.

Xullas, cheksiz Astrobod.

Bosh olib ketgim kelar!
Qayoqqa?
Boray desam,
Hirot yo‘q.

– Hirot!..
Chinqiraman betinim.

Dunyo sadosizdir!

Vohkim,
Astrobod bilan tugar,
Faqat Astrobod bilan tugar –
bu dunyoning
barcha yo‘llari.



* * *

Seni sog'inganda
Ozod bo'ldim men,
G'amingda naqadar
Barbod bo'ldim men!
Seni sog'inganda
Yuksakka chiqdim.
G'aflat pastda qoldi —
Yurakka chiqdim;
Seni sog'inganda
Baxtiyor bo'ldim,
Baxtli o'limlarga
Haqli yor bo'ldim.
Kezaman dunyoda:
Azobing — tiniq,
Go'yo xo'rsiniqman,
So'nggi xo'rsiniq...



* * *

Soʻzlarni samoviy ranglar oʻradi.
Har bir jilosida ruh — qavat-qavat.
Qay bir yuksaklikdan kelib soʻrading:
— Meni sevasanmi?
— Sevaman abad.

Soʻzlar chin shiddatda hapriqib oqdi,
Taʼqdir-u umrga otib ildizlar...
Negadir bizlarga achinib boqdi,
Derazada turgan qari yulduzlar.



TUSH HAQIDA ERTAK

Tongda uyg'ondim-u yo'lga tez chiqdim,
Ufqqa betoqat ko'zimni tikdim.
Shaharlardan o'tdim, qishloqdan o'tdim,
Toshloqlardan o'tdim,
O'tloqdan o'tdim –
Hatto uyimdan ham nariga ketdim,
Mantiqning beshafqat qa'riga ketdim.
Dedilar: – Qayoqqa shoshasan, bu dam?
– Tushimning ortidan,

tushim ortidan!

Bu yo'lda garchi g'am yutmoq istamayman,
Tushimni qo'limga tutmoq istayman...

Dalalardan o'tdim, bog'lardan o'tdim,
Nodonlardan o'tdim, sog'lardan o'tdim,
Kunlarimdan o'tdim, yillardan o'tdim,
Meni mo'ljal olgan millardan o'tdim –
Yo'llar tezligimga yelday eshildi,
Chorig'im titildi, tovon teshildi...

Dedilar: – Bo'ldi, bas!

Qayt! Ortingga Qayt!

Tushingni suvga ayt,
Faqat suvga ayt!
Anglagin, bunda yo'q tushqo'nar makon,
Tushingni suvga ayt faqat, og'ajon!

Lablarim gezarib, yo'llardan qaytdim,
Tushlarimni yig'lab suvlarga aytdim,
Suvlar olib ketdi – daryoga yetdi,
O'zimday tinimsiz dunyoga yetdi,
Daralardan o'tdi, tog'lardan o'tdi,
Necha to'g'on qadar chog'lardan o'tdi.



Kechalardan o‘tdi, kunlardan o‘tdi,
Ham Qora, ham Qizil qumlardan o‘tdi.
Dengizlarga yetdi! Dengizga yetdi!
Tushlarim mavjlarda o‘ynadi – ketdi!
Suzish ham esidan chiqib, boyaqush
Baliq hayron qotdi:

– Qanday go‘zal tush!

Kemalar yetdilar to‘lqinlar osha,
Etgani bu go‘zal tushni tomosha.
Odamlar kemadan ko‘rsatdi-da bo‘y,
Og‘zini yumolmay so‘z qotdi:

– Voy-bo‘y!

Naqadar mo‘‘jiza! Olam bilmaydi!
Ming uxla! Bunday tush bizga kirmaydi!..

O‘zlarin tilida so‘zlab bir balo,
Bebahs-u bejanjal – yo‘qmi muammo? –
Biri tushlarimni rasmga oldi;
Biri o‘lchab ko‘rib, hisobga soldi...

Bu asr axborot yetkizmoqqa tez.
Menga ham xabarlar yetib kelgan kez,
Desalar:

– Bir armon alhol ushaldi,
Taqdirning dastidan birov bo‘shaldi,
Birov o‘zin sotmay, topdi saodat,
Turmushdan topildi oxir zarra baxt...
Tinglab, ko‘zlarimdan yosh oqar...

– Yohu!

Bu mening tushim-ku! Mening tushim-ku!
Bu o‘sha – dilimdan to‘kilgan bayot,
Qurmoqqa quvvatim yetmagan hayot.

Tangrim! Suvga aytar tushlarim mo‘ldir!
Bir qatra suv bersin! Dunyongni ko‘ndir!..



DEDAL VA IKAR

–Yuragim qo‘ymadi, uch deb qo‘ymadi,
Falakka intildim, ammo bu hayot
Yerga ko‘maverib tanni, to‘ymadi...
Baribir men qanot yasadim, qanot!..

Bolam! Sen ne uchun meni qiynaysan,
Sening ham joningdan o‘tdimi turmush?
Uchish ham azobdir, axir... Bilmaysan!
Uchish – qismat osha – betin zo‘riqish.

Qara! Menga qara! Ahvolimga boq!
Ammo sen so‘zlaysan qandaydir tushdan!
Uchganning hamisha qismati chatoq,
Yerni-ku gapirma, falak ham dushman.

Garchi padaringman! Qilmagin taqlid,
Senga quriganmi jaydari taqdir –
Masalan, ermakka urishtirgin it,
Yoxud mayxonada uyushtir tadbir.

Yo‘lingdan qaytmaysan! Turibman sezib!
Mana, bir juft qanot! Senga ham! Olgin!
Ikar!

Bolaginam!

Uchganing kezi

O‘zni quyoshgamas – shamolga solgin!

Behuda yuksaklik esa toldirar!
Past uch! Dengiz uzra parvoz ham ko‘rkam...
To‘xta! Quyosh sori borma! Yondirar!
To‘xta! Qanotlaring kuyadi, bolam!..



– Ota! Olov o‘tdi suyag-u etdan,
Azobdir jismimni quyosh yutishi...
Faqat qanday go‘zal – falakka yetgan
Parvozning kul bo‘lib, yerga tushishi.

– Hech kimni ayamas rivoj hududi!
Bizni yamladimi? Yo‘qdir e’tiroz:
Kuyib tushayotgan, bolam, vujuding,
Ko‘kda qolgan esa la’nati parvoz!



* * *

Qorong'ulik bo'lmaganda,
Sizga xat yozarmidim.

Yurakdosh izlamaganimda,
Sizga xat yozarmidim.

Adashib ketmaganimda,
Sizga xat yozarmidim.

Xat yozarmidim,
Manzilingizni bilganimda?..



* * *

Ayoz. Kecha — qatqaloq.
Havo tirnar yurakni.
Yulduzlar yonar porloq
Shu'lalari ipakli.

Falak besarhad qo'shiq
Tangrim aytgan dostonda...
Ketgim keldi bu kecha
Tunagani osmonga.



* * *

Shaboda!
Shoh boda!
Yaproqlar tebranar,
Soyalar tebranar —
Mast ayladingmu?

Shaboda!
Ozoda
Bahorni ko'ngilga,
Bir nafis,
Bir hadis —
Sas ayladingmu?

Shaboda,
Sha'n boda,
Ko'rinmas kapalak —
Mavjlangan nursan.

Shaboda,
Nurzoda,
Ko'nglim behisht o'ldi —
Sen esa hursan.



* * *

Bilaman, hayot — kurash bilan tirik.
Ammo men muvozanat talabidaman.
Masalan: qirgʻiy zoʻr boʻlmasin qanchalik,
Chirqillagan chumchuq tarafidaman.

Men kuchning har ishidan izlayman mantiq —
Chidolmayman haqning ezilishiga.
Qoʻlni koʻtarmayman hech qachon — aniq —
Gullagan daraxtning kesilishiga.

Olamga zoʻrovonlik beshafqat boqadi.
U xush koʻrar tiz choʻkkan dunyoni...
Bu payt menga negadir yoqadi —
qullarning isyoni.



* * *

Ikki jo'yak tok, olmazor
O'rtamizda. Bog' — eski.
Bu yo'lakdan ketsam — sen bor.
Sen bor. Aldamas sezgi.

Ariqlarni o'tlar ko'mgan —
Suvlar sim-sim — faqirfe'l.
Tollar soya otgan yo'lda
Senday titrab borar yel.

Ko'tarolmas o'mganini
Toklar. Bu bog' — qarovsiz.
Bilmas nima bo'lganini —
Sevgi yashar — yalovsiz.

Garchi jonda — ming qiynoqda —
Buralar besas faryod:
O'lim — yaqin. Bu chorboqda
Ko'ch-ko'ron ortar hayot.

Chol daraxtlar shabodada
Shovullamaydi keskin...
Men sen haqda so'zlab bersam —
Tinglar. Bog' — juda esli.



* * *

Gulchehraning qo‘li gul.
Shippak tikdi o‘ziga.
Rangli kartondan.
Biram bejirim. Gullari ham bor.
Onasi negadir yig‘ladi.

Gulchehraning baribir quvonchi olam:
endi opasining maktabdan kelishini
kutib o‘tirmaydi –
o‘zi ketaveradi maktabga Gulchehra.
Opasini o‘zi keyaversin o‘sha eski kalishni.
Bir o‘zi kiysin.
Gulchehraning shipagi bor.

Chopib ketdi Gulchehra yo‘llardan.
Gulchehraning shippagi bor!
Biram bejirim.
Biram yarashiq.
Gullari ham antiqa!

Atrofdan esa bahor!
Bulutlar yugurib kelar tog‘lardan.
Chaqmoqlar chaqadi.
Yomg‘ir shovullar.
Gulchehra yuray desa,
quruq joy yo‘q olamda.
Yo‘llar xalqob...

Gulchehraning bejirim shipagi ivib qoldi.
Gulchehraning chiroyli shipagi yirtilib qoldi.
Gulchehraning rangli shipagi uzilib qoldi.

Yo‘l chetida qunishib to‘xtadi
Gulchehra:
maktabga boray desa,
bolalar kuladi “yalangoyoq” deb,
uyga qaytay desa, yig‘laydi onasi.



ERTAKGA IQTIBOS

– Odam, buyur! Bajo etgum
Ne istasang dunyoda!..

Men baliqni ozod qildim
Va tashladim daryoga.

– Buyur!..
Yana jilpangladi
Qarmoq uchida baliq.
Yana uni suvga otdim –
Mangu hurlik ber, xoliq!

– Buyur!..
Oltin bo'lmay o'lgur,
Yana qarmoqqa bandi..
Jonvorga boz hurlik berdim –
Ertak hamisha tanti.

Ammo baliq faryod urdi,
G'ami sig'may dunyoga:
– Qarmog'iga ilinmanglar,
Yana tashlar daryoga!..



* * *

Men azobdaman,
senga aytsam...

Qo'limdan hech narsa kelmaydi.

Qo'lim — kalta.

Shu qadar kaltaki,
ko'rganlarimni yozay desam,
qog'ozga yetmaydi.

Qog'oz bilan

ko'ngil orasida esa,
beorlar yaratgan zo'rvonlik
va men — joni shirinning
qo'rquvi bordir.



* * *

Kunlarda – yo‘q ozor.
Hol – muvozanat:
Na-da malomat bor,
Na-da adovat.

Tanda – tiniq orom –
Zilol ruh fasli.
Vaqt, endi yo‘q armon,
Taslimman, taslim.

Insonlik bahrida
Tugadi ro‘zim.
Qoldi so‘z – tangriga
Aytguvchi so‘zim.

Chaqmoqlarga uchrab
Yonmagandayman;
Hozir
 dunyo ichra
Qolmagandayman.



UNDOV SO‘ZLARGA BOG‘DA YOZILGAN SHARHLAR

O!.. – daraxt barg ochibdi.

Vuy!.. – bog‘ gulga ko‘milgan.

Uh!.. – nimalar qilayapti bu Ayamajuz?

Voy-buy!.. – hosilning ko‘pligini!

Bay-bay!.. – bog‘ to‘la meva. To‘kilib yotibdi.

Iye!.. – bir barg sarg‘aydi.

Oh!.. – xazonrez.

Uf!.. – buncha g‘amgin bu imillagan yomg‘ir?

Uh!.. – yaydoq shoxlarni oralab, bir zarra qor
uchib o‘tdi...

Demak,
tugadi undov so‘zlar.
Endi bahorgacha
bosiq suhbatdir...

**BAXSHIYONA**

* * *

Elbek baxshi shogirdi Elomonga: “Dunyoga aytadiga-ningni aytgin, dimog‘ingni chog‘ qilib, ko‘ksingni tog‘ qilib, eson-omon qaytgin”, deb do‘mbirasini qo‘liga tutqazib, safarga jo‘natgan edi.

Ana endi Elomon qaytdi. Elbek baxshi shogirdining qo‘lidan ushlab, ko‘nglini xushlab: “Dunyoga nimalarni aytding, o‘, bolam”, deb so‘rab, Elomon javob berib turgan joyi ekan:

Maysaga ezmayman, deb aytdim,
Daraxtga kesmayman, deb aytdim.
Tuproq‘imga, sen deb o‘lsam,
Og‘riqni sezmayman, deb aytdim.
Ayolga suyaman, deb aytdim,
Ishqingda kuyaman, deb aytdim.
Sening bosgan izlaringga
Boshimni qo‘yaman, deb aytdim.
Sahroga tog‘ bo‘lasan, deb aytdim.
Kechaga oq bo‘lasan, deb aytdim.
Shaytonga, ayolni sevsang
Imonday pok bo‘lasan, deb aytdim.
Qushlarga otmayman, deb aytdim,
Yorimga sotmayman, deb aytdim.
Haq aysam – o‘tda kuymayman,
Suvlarga botmayman, deb aytdim.
Chinorlarga xassan, dedim,
Osmonlarga pastsan, dedim,
Yulduzlarni qo‘lda tutib,
Tutganim yo‘q – mastsan, dedim.
Tog‘ ustiga chiqdim maston,
Ko‘z oldimda O‘zbekiston.
Yig‘layverdim, yig‘layverdim,
Dedim: iloyo, bo‘l omon.
Ko‘z yoshga arzir – sen, dedim



Quvonchga arzir — sen, dedim,
Bu boshim dunyoga arzir,
Shu boshga arzir — sen, dedim,
Qo‘shig‘im tarzi — sen, dedim,
Yuragim mag‘zi — sen, dedim,
Otamdan meros qolgansan,
Bolamdan qarzim — sen, dedim.

Elomon yana ko‘p aytdi, emranib turib xo‘b aytdi, jo‘shib aytdi, shoir-da, ba‘zan qo‘shib aytdi. Shunda Elbek baxshi: “O‘, bolam! O‘, shoirlikda men yetmagan nolam, baxshi bo‘lib to‘liqib qolibsani, ilhom deganiga yo‘liqib qolibsani, endi senga oxirgi nasihatim shudir”, deb ko‘ksida qo‘zg‘algan yelga soqoli pirillab, ovozi chaqmoqday gurillab, bir so‘z deb turgan ekan:

Ustozim deganing she‘rfurush chiqsa,
Suyganim deganing erfurush chiqsa,
Podshohim deganing elfurush chiqsa, —
Chidagin, bolam-a, chidagin,
Dardlaring taningga joylansin.
Chidagin, bolam-a, chidagin,
Ohlaring qo‘shiqqa aylansin!

Chin qolib, yolg‘onlar topsa marhamat,
Yaxshimas, yomonlar topsa marhamat,
Aldamchi zamonlar topsa marhamat —
Chidagin, bolam-a, chidagin,
Dardlaring taningga joylansin.
Chidagin, bolam-a, chidagin,
Ohlaring qo‘shiqqa aylansin!

Amir o‘g‘ri bo‘lsa, qozi — riyokor,
Vazir — shuhratparast, o‘g‘ri — ziyokor
Va ular xalqingdan kulsalar beor —
Chidagin, bolam-a, chidagin,
Dardlaring taningga joylansin.
Chidagin, bolam-a, chidagin,
Ohlaring qo‘shiqqa aylansin!



Donolar qorani oppoq desalar,
Shoirilar haromni shu pok desalar,
Qo'rqasalar, dushmanni o'rtoq desalar –
Chidagin, bolam-a, chidagin,
Dardlaring taningga joylansin.
Chidagin, bolam-a, chidagin,
Ohlaring qo'shiqqa aylansin!

Odamman deb tursa temirlar, toshlar,
Desalar: dunyodan bitdi ko'z yoshlar.
Tug'larning ustidan yursa molboshlar, –
Sen chida, bolam-ey, sen chida.
Kuylagin – to'xtama bir nafas!
Sen kuyla qilichning tig'ida –
O'shanda el-yurting chidamas!

Bu qo'shiqni aytib, Elbek baxshi quyoshga tik qaragan ekan, ko'zi yoshlanmabdi.



* * *

Elbek baxshi bir kambagʻalning toʻyini gurullatib, necha kampir-qizlarning yuragini dirillatib — ovuliga qaytib kelayotgan edi, bir karvonga duch keldi. Karvonning atrofida necha otliqlar chopishib kelishyapti, tuyalarni yetaklagan shotirlar qoqilib kelishyapti. Osmonga mushaklar otilgan, tuyalarga atlas kimxoblar yopilgan, yosh-yalanglar boʻza ichib boʻkirishgan, bir-biriga doʻq urushgan, tuya ustidagi qizlar ularga lab burishgan, karvonboshining peshonasi tirishgan — oldinda kelyapti.

Elbek baxshi: “Hoʻv, karvonboshi, yoʻl boʻlsin?” — deb soʻradi, karvonboshining oldini oʻradi.

“Yoʻldan qoch, bachchagʻar, kelin olib ketayapmiz”, — dedi karvonboshi.

Elbek baxshining qulogʻiga yigʻi tovushi urildi. Sezdi — uyi kuygan. Bu — Oytumanning tovushi. Shunda: “Ey, kambagʻallik qursin! Orzum ochilmay soʻladigan boʻldi, oʻzim hasratda oʻladigan boʻldim”, deb bir soʻz aytib turgan ekan:

Karvon koʻrdim tuyalari boʻzlab borar,
Nortuyada mening yorim muzlab borar.
Menga bergan vaʼdalari esdan chiqib,
Ostonasi tillo yurtini izlab borar.

Peshonangning yozdigʻidan ayrilma, yor,
Jonim chiqar — qoʻshiq aysam qayrilma, yor!

Oytuman yor ketib borar karvon bilan,
Ogʻrinma dil, mard qoladi armon bilan.
Mol-dunyoning izmin tutib ketaversin,
Men qolayin yurak degan sarbon bilan.

Peshonangning yozdigʻidan ayrilma, yor,
Jonim chiqar — qoʻshiq aysam qayrilma, yor!



Oytuman yor, tumandayin suzib ketding,
Yuragimning qal'asini buzib ketding.
Parchalansam — meni qo'shiq yig'ishtirar,
Sen qo'shiqsiz qolding, gulim — to'zib ketding.

Peshonangning yozdig'idan ayrilma, yor,
Jonim chiqar — qo'shiq aytsam qayrilma, yor!

Karvon yo'li ketgunicha qizg'aldoqzor,
Yig'lamagin, yig'lagandan dunyo bezor.
Kulib-kulib, quvnab-quvnab ketavergin,
G'amga o'zim xaridorman, o'zim bozor.

Peshonangning yozdig'idan ayrilma, yor,
Jonim chiqar — qo'shiq aytsam qayrilma, yor!

Qorli tog'dan naridadir o'zga diyor,
O'zga yurtda kelin bo'lib qolishing bor.
O'zga yurtda o'z yurtingni eslab turgin,
Menga emas, tuprog'ingga bo'l intizor.

Peshonangning yozdig'idan ayrilma, yor,
Jonim chiqar — qo'shiq aytsam qayrilma, yor!

Men-chi? Menga goh shodlik, goh alam to'lar,
Har satrimga kulgum to'lar, nolam to'lar.
Bu olam-ku, manim dilim yarim etdi,
Yarmi bilan kuylasam ham olam to'lar.

Peshonangning yozdig'idan ayrilma, yor,
Jonim chiqar — qo'shiq aytsam qayrilma, yor!



* * *

U payt shoir elma-el, yurtma-yurt yurib goh dili suyganni, goh dili kuyganni tinglar ekan. Shoir “oh” tortsa, el “oh” tortib, shoir kulsa, el kular ekan.

Elbek baxshi ham el kezib yurib, odamlarning dardini sezib yurib, bir ovul ustidan chiqdi. Qaradi, bir ayol qimtinib, xayol surib, toshlarga turtinib soyga, suvga enayapti. Tanidi – Oytuman. Oytumanning ko‘zi ham unga tushdi. Gapiirmoqqa til qayda? – ikkovi ikki joyda serrayib turibdi. Shunda ularning sel-selbor yig‘layotgan ko‘zlari shunday gaplashishgan ekan:

OYTUMAN:

– Yaproqlar so‘ladi – baxtsizman,
Olovlar so‘nadi – baxtsizman.
Yo‘lingga intizor ko‘zimni
Tuproqlar ko‘mmadi – baxtsizman –
Ammo sen baxtiyor bo‘lgin, hamisha!

ELBEK BAXSHI:

– Axir, bir ochilish baxti bor,
Boshogday yanchilish baxti bor,
Sog‘inchdan xazoday to‘kilib,
Ko‘z yoshday sochilish baxti bor –
Men shunday baxtiyor bo‘lay, hamisha!

OYTUMAN:

– Kun o‘tmay, shom keldi – baxtsizman,
Ufqdan qon keldi – baxtsizman,
Nechun bu yuragim qiynalar,
Ot minib, jon keldi – baxtsizman –
Ammo sen baxtiyor bo‘lgin, hamisha!



ELBEK BAXSHI:

– Shom chog'i yulduzlik baxti bor,
Sog'inchda yolg'izlik baxti bor,
Hasratda qo'shig'im gulladi,
Shu gulga ildizlik baxti bor –
Men shunday baxtiyor bo'lay, hamisha!

OYTUMAN:

– Dilimda nolam bor – baxtsizman!
Jig'amda lolam bor – baxtsizman!
Qo'sh beshik tebranar yonimda,
Egizak bolam bor – baxtsizman –
Ammo sen baxtiyor bo'lg'in, hamisha!

ELBEK BAXSHI:

– Yurakni tinglamoq baxti bor,
Qayg'uni ilg'amoq baxti bor,
Kechani sho'r boshga yopinib,
Ko'rinmay yig'lamoq baxti bor –
Men shunday baxtiyor bo'lay, hamisha!

OYTUMAN:

– Yo'limdan tayrindim – baxtsizman,
Qanotim qayrildi – baxtsizman.
Kechalar boshimga yog'ilsin,
Men sendan ayrildim – baxtsizman –
Ammo sen baxtiyor bo'lg'in, hamisha!

ELBEK BAXSHI:

– Yig'lama, armonning baxti bor,
Oytuman, hijronning baxti bor.
Ishqsizga omonlik baxt bo'lsa,
Ishq ichra qurbonning baxti bor –
Men shunday baxtiyor bo'lay, hamisha!



OYTUMAN:

– Armonning gullari sap-sariq,
Sariqqa to‘ldi-ya, bu borliq,
Men qancha baxtqaro bo‘lsam, ayt,
G‘ussadan bo‘lasan sen forig‘.
Men qancha baxtqaro bo‘lay, ayt!

ELBEK BAXSHI:

– Boshingga shol ro‘mol tashlaysan,
Bekorga ko‘zingni yoshlaysan.
Men qancha baxtiyor bo‘lsam, ayt,
Sen meni unutib yashaysan,
Men qancha baxtiyor bo‘lay, ayt!

Ular shu alfozda qancha turishganini bilishmadi. Avval Elbek baxshi o‘ziga keldi. Qarasa, ko‘zlari dardlashib to‘ymaydiganday. Shunda o‘zini tutib olib, ko‘z yoshini yutib olib, Oytumanga gap qotdi: “E, egachim, bunday qaragam, kelbating ovulimizdagi Davlatbiyning qiziga mengzaydi. Shu yerlarga bir qizi kelin bo‘lib tushgan deb eshitaman. Shu sen emasmisan?”, – dedi. Oytuman bir yutinib, ming bir tutilib: “Davlatbiyning shu qizi men bo‘laman”, dedi. “Borsam, el-u yurtingga nima deyin?” – dedi Elbek baxshi. “Salom deng”, dedi Oytuman. “Yana nima deyin”, deb so‘radi Elbek baxshi. “Salom deng”, dedi Oytuman. “Xush qol bo‘lmasa, egachim”, deb Elbek baxshi otiga qamchi tortdi. “Yaxshi boring, og‘am”, deb Oytuman soy bo‘yida toshday qotdi...

Birodarlar, Elbekning ketishini-yu Oytumanning qolishini aytishga kuchim yetmaydi. Mening ham bitta jonim bor-da...



* * *

Qorabotir yurtning erkasi, jo'ralarning serkasi edi. Boy edi, yegani go'sht-u moy edi. Alp edi, lekin nozik qalb edi. Erta-yu kech jo'ralariga bazm berar, ammo buni hech kimning yuziga solmas: "Do'stlarimdan nonim tugul, jonimni ham ayamayman", der edi.

Oqbotir uning jo'rasi edi. Jo'ralari ichida eng g'o'rasi edi. Uni yaxshi kunda eslashmasa ham, yomon kunda yo'qlashardi. Yo'qlashmasa ham bo'lardi, chunki bironing boshiga g'am tushsa, u bir zumda yetib kelardi.

Kunlardan bir kuni yurtni yov bosdi. Ne-ne yigitlar ayovsiz urushda jon berdilar. Qorabotir bilan Oqbotir otisha-otisha, chopisha-chopisha bir cho'qqiga chiqdilar. Dushman chor atrofni o'rab oldi. Ana endi ikkovlari bir katta tosh orqasida, g'animlarni poylab yotib, shunday suhbat qurdilar:

OQBOTIR:

Chopa-chopa otlar quladi,
Jang-jadalda sindi qilichlar.
Do'st, sen omon qolasan hali,
Meni yovga topshirsang agar!

QORABOTIR:

Ko'zlarimga quyosh ko'rinmas.
Raqibimiz zo'r ekan — ayon.
Do'stim, senga fido bo'lay, bas,
Sen uchun men topshirayin jon.

OQBOTIR:

To'rt tarafda g'anim lashkari,
Ming yaradan qon oqur tanda.
Do'st, sen eding ko'nglim rahbari,
Meni bog'la, topshir dushmanga.



QORABOTIR:

Tepamizda tanho samovat,
Poyimizda shu bir parcha yer.
Do'st, iloyo, bo'lg'in salomat,
Bog'la meni, yov qo'liga ber.

OQBOTIR:

Agar o'lsam, mendan ne qolur?
Bulutday oq, chiroyli tulpor.
Uni minsin bir yigit – yovqur...
Qo'lim bog'la, do'sti vafodor.

QORABOTIR:

Suruv-suruv qo'ylar qoladi,
Uyur-uyur otlar yaylovda...
Do'st, notanti sanama meni,
Qo'lim bog'la, topshirgin yovga.

OQBOTIR:

O'lsam kuyar faqat volidam –
Qarilikda yolg'izlik yomon...
Do'st, qo'limni bog'lagin mahkam,
Men o'layin, sen qolgin omon.

QORABOTIR:

Aza ochar men o'lsam bir xalq,
Ko'k kiyadi ne-ne boyonlar.
Yo'q, sen hayot quchog'ida balq,
Mayli, meni chaqsin chayonlar.

OQBOTIR:

Sening qo'sh-qo'sh xotinlaring bor,
O'lsang, botar qayg'uga olam.



Menga nasib qilmadi ishq, yor...
Do'st, qo'limni bog'lagin mahkam...

QORABOTIR:

Ulug' elning men ko'rar ko'zi,
Ham farzandman, ham unga ota...
Mayli, o'lay, senga chin so'zim,
Dushman solsin bo'ynimga bolta.

Oqbotir Qorabotirga yalindi, oyoqlariga yiqildi. Ikkovlari uzoq tortishdilar.

Oxiri Qorabotir ko'ndi. Oqbotirning qo'lini bog'lab, yov qoshiga haydab keldi. Yov saxiy ekan – Qorabotirga in'omlar berdi, yov tanti ekan – Oqbotirni ham ozod qildi.

Shunda Oqbotir bir so'z dedi:

Ozod qilding do'stimni, g'anim,
Ammo, menga kerakmas e'zoz.
Jonsiz qoldi baribir tanim,
Meni o'ldiringlar, iltimos!

Bu dunyoda boshim ko'tarib,
Tirik yurmoqligim qolmadi.
Do'st jonini qoldi qutqarib,
Mening bilan o'la olmadi.

Do'st do'st uchun jondan kechmasa,
Do'st do'st bilan bormasa dorga.
Do'st do'st uchun og'u ichmasa,
Quyosh qaro tortmasmu ordan.

Umr ko'rsin do'stim ming yillar! –
Hayot nedir menday faqirga?
Yellar, bering yurtimga xabar:
Suyanmasin Qorabotirga.

Oqbotir murodiga yetolmadi. Yov Qorabotirni o'ldirdi.
U zamonlarda yov ham mard bo'lgan ekan.



* * *

Shunday qilib, birodarlar, Alpomish Qalmoqdan qaytmadi.

Qaldirg'ochoyim tuya boqib turib, ko'zidan yoshi oqib yurib, bir so'z deb turgan ekan:

Sahar chog'i mizg'igandim, bir tush ko'rdim,
Bir choh ko'rdim, choh tubinda bir qush ko'rdim,
Qanotlari singan qushning suratinda,
Og'a, sizni noxush ko'rdim, noxush ko'rdim.

Yorni izlab Qalmoq sari uchgan, og'am,
Nodon og'am, zindonlarga tushgan, og'am,
O'n ming uyli eling madad bera olmas,
Sog' bormisan, zax tuproqni quchgan og'am.

Qorajoning qora kunlar boshidadir,
Mushfiq singling Boysun tog'-u toshidadir.
Sho'rlik Barchin Yodgoringni quchib yig'lar,
Sarqamishning cho'li qonli yoshidadir.

Og'a, endi Qo'ng'irotda dunyo torma,
G'anim uchun to'y-tomosha, bizga dorma?
Hech bir el-yurt erlaridan ayrilmasin,
Sabr bitdi, Boychiborni, og'a, chorla —

Tuya boqdim, tovonlarim g'ijja tikan,
Sen kelmasang Asqar tog' ham cho'kadigan.
Sabr bitdi, Boychiborni, og'a, chorla!
Har bir elga bir er yigit kerak ekan!

Ana endi, Qaldirg'ochoyim bu so'zni aytdi. Alpomish choh tubida yotib, singlisining nolasini eshitdi, yovni yengib Boysun-Qo'ng'irotda qaytdi.

O', birodarlarim-a, Fozil shoirga yetish ko'p qiyin, hamma bilganini aytdi-da...

Men ham bilganimni aytdim.



* * *

Elbek baxshidan “Chiroyli nima?”, deb so‘raganlarida, shunday debdi:

Osmonda yulduzlar chiroyli,
Dunyoda kunduzlar chiroyli,
To‘ylarda kulganlar chiroyli,
Vaqtida o‘lganlar chiroyli,
Bahor seli bilan chiroyli.
Yigit eli bilan chiroyli,
Dehqon dala bilan chiroyli,
Ayol bola bilan chiroyli.

Elbek baxshidan “Yomon nima?”, deb so‘raganlarida, shunday debdi:

Yulduzi yo‘q osmon yomon,
Kunduzi yo‘q jahon yomon.
To‘ylarda yig‘lagan yomon,
Vaqtida o‘lmagan yomon.
Bahorsiz kelgan sel yomon,
Botirsiz qolgan el yomon.
Dalasiz dehqonlar yomon,
Bolasiz armonlar yomon.

Elbek baxshidan “Nima yig‘latadi?”, deb so‘raganlarida, shunday debdi:

Osmonsiz yulduz yig‘latar,
Jahonsiz kunduz yig‘latar,
Bo‘lmagan to‘ylar yig‘latar,
Bemahal o‘lgan yig‘latar.
Tiramohda mard yig‘latar,
Elsiz qolgan mard yig‘latar.
Dehqonsiz dala yig‘latar,
Enasiz bola yig‘latar.



Elbek baxshidan “Nima eng chiroyli?”, “Nima eng yomon?”, “Nima eng ko‘p yig‘latar?”, deb so‘raganlarida shunday debdi:

Eng chiroyli jasoratdir,
Eng yomoni xiyonatdir.
Jon chiqquncha yig‘layvering,
O‘ldirsalar diyonati.

Elbek baxshiga yana ko‘p savollar berdilar, u davradagi yigitlarga qarab: “Hamma savolga javob — o‘zlaring”, dedi-da, etagini qoqib, o‘tovdan chiqib ketdi.



* * *

Hech kim yovga bosh egmadi.

“Bu elning shoirini topinglar”, dedi shunda o'ng qo'l vazir. Ot choptirib, bir jang maydonida yarador yotgan Elbek baxshini topib keldilar.

“Bizni maqta!”, dedi chap qo'l vazir.

Baxshi eshitmaganga oldi.

“Bizni maqta!”, dedi o'ng qo'l vazir.

Baxshi gum-gurs turaverdi.

“Bizni maqta!” dedi podshoi azim.

“Podshoh bo'lsang, o'zingga, — dedi shunda baxshi bir to'lg'onib,— shoiring bo'lsa olib kel, gaplashsam shoiring bilan gaplashaman”.

Bir shoirni olib keldilar.

Elbek baxshi javob berishga hozirlanib, haligi shoir “bizni maqta!” deb turgan joyi:

— Elbek baxshi, bu dunyoning o'tarin ayt,
Bu dunyoga umr kelib-ketarin ayt,
Manov bizning pahlavonlar ko'krak kerib —
Maydon kirsam, falakni ham yiqarin ayt.

— Men ko'rganman osmonlarning tinig'ini,
Toshlar tegdi, terib oldim sinig'ini.
Beshikdagi go'daklarga tig' sanchdilar,
Shunda bildim mardlarningning qilig'ini.

— Tog'day bo'lib turgan odam — navkarboshi,
O'lchab ko'rgin — Yer-osmonni bosar toshi.
Elbek baxshi, maqtayvergin, kam bo'lmaysan,
Mardning shunday bo'ladimi ko'z-u qoshi?

— Nodon shoir, bug'doy deysan tariqniyam,
Ko'rgim axir, bu saroydan nariniyam.
Navkarboshing ortdan kelib pichoq sanchar,
To'g'ri kelsa yengolmaydi ariniyam.



– Elbek baxshi, tilginangni tiyib so‘yla,
Yetti emas, yuz o‘lchab, bir qiyib so‘yla.
Manov turgan xazinachi – nomdor odam,
Mol-dunyoning qulfi shunda – suyib so‘yla.

– Baxshi deding – baxshi ruhi osmondadir,
Ko‘lmakka jo bo‘lganim shu zamondadir.
Nomdor odam ko‘zlarini olib qochdi,
Uning asli hovli-joyi zindondadir.

– Elbek baxshi, unga emas, menga gapir,
Sabil bo‘lib qolmagandir joning, axir.
Maqtovini keltiraver, ahmoq bo‘lma,
Chap qo‘l vazir yomon emas – bola faqir.

Sen nimani bilasan ham gapdan boshqa,
Chap qo‘l vazir yo‘lni bilmas chapdan boshqa.
Saroydagi ayollarning bari bir-bir –
Sel bo‘lishib suykalishar shul qum-toshga.

– Elbek baxshi, boshing ketar bilmaysan-a,
Bu dunyoni nazaringga ilmaysan-a,
Ana turgan o‘ng qo‘l vazir – dono odam,
Xizmatlarin suyib emas, jo‘shib sana.

– Bir cho‘g‘ edim, yov qoshida ketdim yonib,
O‘ch olarim bor ekan-ku, qonib-qonib.
Bu donishmand podshohingning tegrasida
Aylanadi, yeng ichiga pichoq solib.

– Elbek baxshi, bo‘lma buncha “shirinza-bon”,
Tillaringdan aylanayin, holing yomon.
To‘rda turgan podshohimiz – hech bo‘lmasa,
Shuni maqta, qolarsan-ku, eson-omon.

– Meni qo‘ygin, menga taqdir toshdir azal,
Ammo dunyo to‘g‘ri so‘zga ochdir azal.
Shohing kimdir? Qo‘rqoq, xoin, xiyonatkor,
Buzuqlarning davrasiga boshdir azal.



– Mard ekansan, ammo fe'ling azob tug'ar,
Podshohimiz har bir so'zni dilga tugar.
G'azablanib lashkariga "kesgin" desa,
Elbek baxshi, eling tugar, yurtning tugar.

– Haq gap uchun har bir ishga ko'nadi el,
To'g'ri so'zdan ko'payadi, to'ladi el.
Dordan qo'rqib, yolg'on aytib turganim yo'q,
Shoirleri yolg'on aytsa, o'ladi el.

Ana endi, yovning shoiri oh urib, peshonasiga mushtladi.
Men ham shunday aytishuvlarning oshig'iman-da, mana
necha yildirki, surishtiraman, bu aytishuv nima bilan tugadi?
Elbek baxshining holi ne kechdi?

Anig'ini bilay deb, g'anim shoir elatining daragini
so'rab, surishtirdim, tarixni kavlashtirdim, ammo hech natija
chiqmadi. Aytishuvdan yigirma, o'ttiz yil o'tgach, bu xalq
osmonga chiqqanmi, yerga kirganmi, ishqilib izsiz g'oyib
bo'lgan. Shunda sho'rlik shoirning oh urgani ma'nisiga
yetganday bo'ldim...



* * *

Alpomish Qalmoqqa ketadigan bo'ldi.

Barchinning bo'yida uch oylik gumonasi bor edi.
Barchin Alpomishning ketarini bilib, qimtinib, uyalib,
keragiga suyanib, bir so'z deb turgan ekan:

Yo'llarda ko'p mening gumonim,
Ketarsan – ichimda fig'onim,
Olti oy o'tgan so'ng kelmasang,
Bolangga ne deyin, sultonim?

Seni zor kutarman dilpora,
Hijronda oshiqlar bechora,
Aytib ket, sultonim, farzanding –
Qay so'zni eshitsin ilk bora?

Ostingda o'ynaydi Boychibor,
Ko'zimda yoshlarim shashqator.
Otalik gapingni aytib ket,
Bolangni nima deb suyay, yor?

Bolangni ko'ksimga tutganda,
Go'dagim oq sutni yutganda,
Nelarni shivirlay bolangga,
Jonimni oromlar titganda.

Og'irdir, yor, sensiz pallalar,
Mudrasa kechasi dalalar.
Beshikda tamshangan bolangga,
Aytayin qanaqa allalar?

Alpomish Barchinning sochini silab, eson-omonlik
tilab, tasalli berib, so'zlarni avaylab terib turgan joyi:

Qo'lingga tutganda bolamni,
Barchinim o'ylagin olamni.
Ajdodlar ruhini tavob qil,
Yashirma quvonch-u nolangni.



Olamda ko'p erur ibora,
Bir so'z bor – og'riqdan iborat.
U – Vatan! Barchinim, u – Vatan!
Bolamga, “Vatan” de ilk bora.

So'zlagin eng yuksak tilakdan,
Bo'taday bo'zlagin yurakdan.
“Vatan” de... Bolamning qoniga
Oqiblar kirsin u yurakdan.

Aqling hech bo'lmasin faromush,
Bolamni qil yaxshi parvarish.
Barchinim, bolamga yana ayt,
Otasi – Alpomish!... Alpomish!

Yeldayin, seldayin bul hayot,
Safardan qaytmasam umrbod,
Barchinim, allaga qo'shib ayt,
Elining otidir Qo'ng'irot.

Oy chiqsa bo'ladi oydin de,
Lochinday qanoting yoygin, de.
Barchinim, suyganda suyib ayt,
Tug'ilgan tuprog'ing Boysun, de.

Xasdayin cho'llarda uchib ayt,
Zamondan zamonga ko'chib ayt.
Bolamning taniga joylansin,
Quchib ayt, quchib ayt, quchib ayt!

Boylikka bo'lma de xaridor,
Boylikdan balandda el-yurt bor.
Ayt, yovni qaqshatgan alp bo'lsin,
Ayt, bo'lsin yurtiga xizmatkor.

Barchinim, farzandim sher bo'lsin,
Yurtiga suyanchiq er bo'lsin.
Vatanni diliga jo aylab,
Baxshilar tilida she'r bo'lsin.

O' birodarlar, Barchin esli xotin edi! Farzand ko'rganida bolasiga nimalar degan, bilmayman, ammo biz tomonlarda baxshilar Alpomishning o'g'li Yodgor haqida ham doston aytishadi...



* * *

Birodarlar, ana endi Elbek baxshi Asqar tog'ining boshida o'tiribdi. Atrofga qarayapti: bir tomon Sayxun, bir tomon Jayxun, bir taraf ko'l, bir taraf cho'l. Ana Samarqand-u Buxoro, undan nari Xorazm, shundoq to'g'rida Surxoni azim...

Baxshining dili to'liqib, ichida doston to'kilib kelayapti. Tilida qo'shiqlar tuzilyapti, qo'li do'mbiraga cho'zilyapti... Shu alfozda ko'zlari suzilib, ko'ngli buzilib turgan edi. "Hormang, baxshi bobo", degan tovush qulog'iga urildi. Baxshi burilib qarasa, Oqbotir bilan Qorabotir otlarini yetaklab, daradan chiqib kelishyapti. "Endi bir qo'shiq aytib berasiz", deb kulib kelishyapti.

"Nimadan aytayin?", — deb so'radi Elbek baxshi ovozi titranib.

"Bo'lar elning farzandi qanday bo'ladi-yu, sho'rlik elning farzandi qanday bo'ladi — shundan ayting", — deyishdi botirlar.

O'zi qo'shiq ham baxshining yuragidan o'rlab, bo'g'ziga yetgan edi — do'mbirasini oldi-da, aytib yubordi:

Har kim o'z elida bekdir, to'radir,
O'z elida bek bo'lmagan o'ladir.
Bo'lar elning farzandlari, botirlar,
Ko'zin o'yib olishsa ham ko'radir.

Mard dunyoga kelgan tuproq zo'r bo'lar,
Nomard oyoq bosgan zamin sho'r bo'lar.
Sho'rlik elning farzandlari, botirlar,
Ikki ko'zi ochiq turib ko'r bo'lar.

Har kim o'z elida davron suradir,
Mardlar elin to'g'ri yo'lga buradir.
Bo'lar elning farzandlari, botirlar,
Oyoqlarin kesishsa ham yuradir.

Yomon to'g'ri so'zda mudom xun ko'rar,
Tushlarida el og'zida mum ko'rar.



Shoʻrlik elning farzandlari, botirlar,
Yurtin eshakdayin minib kun koʻrar.

Shoirilar sheʻrlarin yuksak taxt deydi,
Lof urmagin, aytgin mudom naqd deydi.
Boʻlar elning farzandlari, botirlar,
Tilin kesib tashlashsa ham “haq” deydi.

Yurak kerak doim haqni demoqqa,
Dilim yondi – isi tegdi dimoqqa.
Shoʻrlik elning farzandlari, botirlar,
Ogʻiz ochar faqat ovqat yemoqqa.

Kuysin dunyo! – mudom oʻtga tashlaydi,
Asl erlar oʻtda choʻgʻday yashaydi.
Boʻlar elning farzandlari, botirlar,
Dushman ming bor oʻldirsa ham yashaydi.

Gʻarib dunyo tasodifga toʻladir,
Tasodifga gʻarib boshlar koʻnadir.
Shoʻrlik elning farzandlari, botirlar,
Oʻzi bilmay tiriklikda oʻladir.

Kuysin dunyo – gʻamin haddan oshirar,
Gʻamni sohib, shodligini yashirar.
Boʻlar elning farzandlari, botirlar,
“Yo, xalqim...”, deb jallodga jon topshirar.

Gʻarib dunyo gʻariblikda koʻp xordir,
Oʻzi boqib – bovligani agʻyordir.
Shoʻrlik elning farzandlari, botirlar,
Elin soʻyib yemoqqa ham tayyordir.

Gap kelganda gap qilichday jaranglar,
Oʻtkir soʻzdan achishdimi yaranglar?
Ena elim farzandlari – botirlar,
Togʻdan turib endi yurtga qaranglar...

Elbek baxshi bu soʻzlarni aytyapti, botirlar togʻdan turib pastga qarayapti... Kim bilsin – nimani koʻrishyapti? Bu dunyodan hamma istaganini koʻrib oʻtadi, degan ekan yaxshilar!



* * *

Elbek baxshi farzandlarini tegrasiga o'tqazib, "hech qachon eslargandan chiqarmanglar", deb tayinlab, har zamon-har zamonda shunday qo'shiq aytar ekan:

Daryoday ozod oqqin,
Oydayin erkin boqqin,
Shamollarday ozod kez –
Qoyalarga suyanma.
Yelkangdan bosib olam
Tor kelsa yorug' olam.
Qoyalarga suyanma,
Elingga suyan, bolam!
Xas kabi qaltirama,
O'tgan yelning qoshida.
Daraxt bo'l, saratonda
Qolganlarning boshida.
Tiriklarga odil bo'l,
Marhumlarni unutma.
Bu yurt seniki, bolam,
Talatma har xil itga.
Ko'r bo'lma, dunyoga boq,
Boshdan adog'igacha.
Odamlarni qo'shiq qil,
Qo'lin qadog'icha.
Qarg'a qoshida qarg'a
Bo'lib sayrama, bolam.
Bulbulsan, bulbullarday
Jon o'rtar, bo'lsin nolang.
Kulging kelmasa kulma,
Uyalma ko'z yoshidan.
Peshonang qattiq bo'lsin
Asqar tog'ning toshidan.
G'amni o'zingga qoldir,
Elingga bergin shonni.
Elingni hech qiynama,



Qiyagin shirin jonni.
Toshdaymas, tog'day bo'lgini,
Qoyangda qush uyg'onsin.
Eling senga qoqilmasin,
Eling senga suyansin.
O'lar bo'lsang, pul deb o'lma –
Nomard bo'lib ketarsan.
O'lar bo'lsang, ishq deb o'lgini –
Jo'mard bo'lib ketarsan,
O'lar bo'lsang, mansab dema –
Tuban tushib o'larsan,
O'lar bo'lsang, dil deb o'lgini,
Baland uchib o'larsan,
O'lar bo'lsang, qochib o'lma,
Jangda qurbon bo'l, bolam!
Yov poyida jon bermagin,
Mudom osmon bo'l, bolam!
Yashashga ham, o'linga ham,
Yigit uchun sabab ko'p –
Bir yashash bor, bir o'lim bor
Barchasidan, bolam, xo'p:
Umring uzun bo'lsin, ammo
Rost gap chog'idir bu dam –
Eling uchun, bolam, yasha,
Eling uchun o'l, bolam.



* * *

Shoir nima qiladi? Botirga madad, hurkakka dalda beradi.
Qadim zamonlarda Elbek baxshi ham jur'atsiz yigitlarga mana
shunday dalda berar ekan:

Rangi bo'zday,
Titrab turgan er yigit,
Bir qadam qo'y,
Botir bo'lib ketarsan.
Qochmay turib,
Avval yonga boqqin tik,
Bir qadam qo'y,
G'olib kulib ketarsan,
Alp bo'lmadim
Deb hech chekmagin alam,
Intilganga
Olgin deydi bu olam.
Bir qadam qo'y,
Botir bo'lib ketarsan —
Qo'rzoqlikdan
Mardlikkacha bir qadam.
Yonayotgan
Bolam, ko'zingga cho'g'dir,
Jur'atsizlik,
Yigit qatliga o'qdir.
Qo'rzoqlikdan
Jasurlikka bir qadam,
Jasurlikka
Sotqinlikdan yo'l yo'qdir.



* * *

Otamning enasi — Guldona momoning allasi deb Elbek baxshi biz shogirdlariga shunday alla aytib bergich edi:

Bu beshikning ichiga
Yulduz qoʻnganday boʻldi,
El-yurtining koʻngliga
Kunduz qoʻngayday boʻldi —
Alla.

Beshigining boshiga
Falak kelib egildi,
Enasining tiliga
Yurak kelib egildi —
Alla.

Qirq farishta sogʻinib,
Xumordayin egildi,
Davomchim — deb bobosi
Chinordayin egildi —
Alla.

Otasi: gung dunyoda
Rubobim, deb egildi.
Barcha mushkul savolga
Javobim, deb egildi —
Alla.

Momosi: “Atir boʻyli
Maʼdanim”, deb egildi,
Vatan ichida goʻzal
Vatanim deb egildi —
Alla.

Vatan ham suyib-suyib,
“Polvonim”, deb egildi,



Menga tushar toshlarga
Qalqonim, deb egildi –
Alla.

Enamning enasi Hayitgul momomning allasi deb Elbek
baxshi mana bunday qo‘shiq aytgich edi:

Bola yo‘rgaklash savob,
“Tangrim”, deb qildim tavob –
Allayo, alla.

Oy mo‘ralar eshikda,
Tangrim uxlar beshikda –
Allayo, alla.

Yulduzday so‘nmas bo‘lgin,
Eldayin o‘lmas bo‘lgin –
Allayo, alla.

Yig‘lasam yoshimda tur,
Vatanday boshimda tur –
Allayo, alla.

Oloh – yolg‘iz, yurt – yolg‘iz,
Ona bergan sut yolg‘iz –
Allayo, alla.

Turfa-turfadir olam,
Sen ham yolg‘izsan: bolam –
Allayo, alla.

Bu qo‘shiqlardan hammaning ko‘ngli to‘liqib turganda,
bir kuni narigi o‘tovdan Elbek baxshining kelini Gulsum-
ning allasi eshitilib qoldi:

Do‘mbiraning tori bo‘l,
Naqshi bo‘lmagin, bolam,
Do‘mbirani yerga qo‘y –
Baxshi bo‘magin, bolam,
Alla-yo.



Baxshi bo'lsang — el ichra
Zoring bo'ladi, bolam.
Elning yaxshi-yomoni
Oring bo'ladi, bolam —
Alla-yo.

Baxshi bo'lsang — el ichra
Noming bo'ladi, bolam.
Noming zaqqumga to'la
Joming bo'ladi, bolam —
Alla-yo.

Baxshi bo'lsang — so'z ichra
Koring bo'ladi, bolam,
Aytganing har yolg'on so'z
Doring bo'ladi, bolam,
Alla-yo.

Bir butun-u, ming-u bir
Kaming bo'ladi, bolam,
Tangrim yaratgan dunyo
G'aming bo'ladi, bolam —
Alla-yo.

“Gulsum yosh-da, — dedi kelinining allasini eshitib
Elbek baxshi, — bu dunyoni bitta deb o'ylaydi... Har kim-
ning o'z dunyosi borligini qayerdan bilsin?”...



* * *

“Boysun ja’mi to’qson olti urug’ elning bozori bo’lgan payti, — deb naql aytardi Elbek baxshi, — Doniyor shoir Gazaning belida bozor qilib qaytayotgan bir otliq xalqqa duch kelibdi. Salom berib o’tayotganda, bir qiz unga kulibgina nazar tashlaganini sezib qolibdi. Shoir ham unga ko’zi tushibdi. Tushibdi-yu jon-u jahoni yonib, ketayotgan yo’lidan tonib, taqdirning oldida engashib, haligi otliqlarga ergashib ketaveribdi. To’xtasa, haligi qiz yana bir qarar ekan, Doniyor ashula aytib, izillab yana ergashishga tushar ekan. O’sha ashulasi mana bu turur...”

Elbek dumbrani “Yurak yig’ladi”da chertib, mana bu qo’shiqni aytib berar edi:

Yuraklarimni toldirding,
Do’mbiramni chaldirding.
Boqma deyman-a, singiljon,
Jonni azobga qoldirding.

Oysiz-a tunlar qarodir,
Kun kelsa, tunlar poradir,
Boqma deyman-a, singiljon,
Boshim-a aylanib boradir.

Saroton kelganga o’xshadi,
Tomoqlarim-a qo’rqshadi,
Qarama deyman, singiljon-a,
Bo’g’inlarim-a bo’shadi.

Ko’ksimni tovshim yoradi,
Oshiqqa faryod choradir.
Qarama deyman-a, juvonmarg-a,
Jonim-a chiqib boradi.

Ko’zlaring kulib qiyolar,
Uyqashadi-ya ziyolar.



Qarama deyman-a, juvonmarg,
Jo'g'olib bormoqda dunyolar.

O'rtanib gapni uladim,
So'zni-ya yurakka beladim,
Qarama deyman, juvonmarg-a,
Behishtlarga-ya quladim.

Bog'larimni-ya cho'l qilding,
Qo'shig'imni mo'l qilding,
Qarama deyman-a, juvonmarg,
Dunyoni yoshga-ya ko'l qilding.

Yolg'onmas, chinlab boraman,
Yurakni tinglab boraman.
Qarama deyman, juvonmarg-a,
Ortingdan yig'lab-a boraman.

- Keyin nima bo'ldi? – deyman men.
- Doniyor shu ketganicha ketdi, – deydi Elbek baxshi.
- Qaytmadi.
- Bechora... – deyman men xo'rsinib.
- Unday dema, – deydi Elbek baxshi. – Eliga bir qo'shiq qoldirgan odam bechora bo'lmaydi. Hammaga qaytmaydigan sevgi-yu qoladigan qo'shiq nasib qilsin!..



* * *

– Qutbo‘ldi baxshi nor yurakli yigit bo‘lgan ekan, –
der edi bizga Elbek baxshi o‘tgan-ketgan shoirlardan gapirib,
– Odam quriganday Jondorbiyning qizini yaxshi ko‘rib, qiz
bilan til biriktirib, olib qochishga jazm qilgan ekan. Bundan
xabar topgan Jondorbiy yigitlari bilan Qoradarada shoirni
ushlab, necha ming mushtlab, ko‘zini o‘ydirgan ekan, azob
berib so‘ydirgan ekan. Qutbo‘ldi o‘larida Jondorbiyning qizi
Gulhusnini olisdan eslab, bunday qo‘shiq aytgan deyishadi:

Oqar daryo, bilmaysan,
Bo‘lmas ado, bilmaysan!
Tomchi yoshingni to‘kkin,
Yondi dunyo, bilmaysan.

Qara, shafaq qirmizi –
Kuygan jonimning izi.
O‘sma siqsang, qon oqar:
Men suyildim, boy qizi.

Kiyganing – atlas, kimxob,
Kimxob ichida sarob.
“Nimaga”, deb yig‘lama,
Hech kim bermaydi javob.

Oqar daryo, bilmaysan,
Bo‘lmas ado, bilmaysan!
Tomchi yoshingni to‘kkin,
Qoldi dunyo, bilmaysan.

Qizarib oylar boqdi,
Bo‘g‘zimga pichoq botdi.
Meni so‘ydi boy otang,
Tanimni jarga otdi.

Chida taqdir o‘yniga,
Aybin qo‘yma bo‘yniga.



Dunyo ming so'ygan edi,
Otang ham bir so'ydi-da.

Oqar daryo, bilmaysan,
Bo'lmas ado, bilmaysan!
Tomchi yoshingni to'kma –
Ketdi dunyo, bilmaysan.

Biz, Elbek baxshining shogirdlari, “so'yilgan odam ham qo'shiq aytadimi?”, deganday hayron qoldik.

– Aytadi, – dedi Elbek baxshi. – Aytadi. Eng yaxshi qo'shiqni so'yilgan odam aytadi.

Shu sabab, keyinchalik, yurakni o'rtab aytadigan shoirni uchratsak, “ha, bu ham bir so'yilgan ekan”, deb qo'yadigan bo'ldik.



* * *

Elbek baxshi otini yeldirib, qo‘shiq aytib ketaverar edi.
Yerga tushganini qaytarib olmas edi. O‘zbekning yeri she‘rga
tuysin, degan bo‘lsa kerak-da...

Bundan besh yuz ellik bir yil avval yilboshida –
”xalqning hayiti haq gap” bo‘lsin deb, bir qo‘shiqni
g‘ayg‘aylab aytgan edi. Shu qo‘shiqni “she‘r qadrlar dunyo
qaytganda, aytib yurarsizlar”, deb sizlarga aytib turganim:

Shamoli sochim taragan,
Tog‘larga bulut qalagan;
Uzun kunlarni sog‘inib,
Dilda bulbulday sayragan –
Bu dunyoning-a qurdoshi –
Qutli-ya bo‘lsin Yilboshi!

El-yurtning ko‘nglin xushlagan,
Boychiborlari kishnagan,
Necha Barchin suluvlar-a
Jilovlarini ushlagan,
Sog‘inganlarning dildoshi,
Qutli bo‘lsin Yilboshi!

Bobojonimdan yodgorim,
Momojonimday g‘amkorim,
Hayitida-ya o‘ynasam,
Do‘mbiralari hamkorim,
O‘tgan-ketganning yo‘ldoshi,
Qutli-ya bo‘lsin Yilboshi!

Qanoti yo‘qdir uchmagan,
Yerda dimiqib qishlagan –
O‘t-o‘lanlarning qulog‘in
Shamollar endi tishlagan...
Tiriklikning jondoshi,
Qutli-ya bo‘lsin Yilboshi!



Dala-dashtlarning ko'klami,
Keldi hayitning ko'rkami —
Qirlarda ko'ngim chopadi,
Yomg'ir to'shiga burkanib.
Tog'-u tosh hutga to'ldi-ku,
Qozonlar sutga to'ldi-ku!
Arpa-bug'doylar ko'kardi,
El-u yurt qutga to'ldi-ku!
Dehqon otamning-a sirdoshi —
Keldimi dehqon Yilboshi!

Hut oyi qizib o'tdima,
Bahorni tuzib o'tdima?
Yorimning isin anqitib,
Ko'nglimni buzib o'tdima?
Shamollar izib keldima,
Sog'inchning isi keldima?
Yo'qotganimni ko'ray deb,
Sevgini o'zi keldima?
Yo'qotganlarning mungdoshi —
Keldingmi, singlim Yilboshi!

Aylanadi charx davroni,
Dunyoda yo'qdir armonim!
O'ynab-kulinglar hayitda,
To'xtasin, umr karvoni!
Do'mbra chalay "uf"latib,
Ketar yo'llarni qulflatib.
Jilovin uzdi kajraftor —
Bo'lmayapti-ya to'xtatib...
Kajraftor charx-a, sirdoshim,
Qutli-ya bo'lsin Yilboshing!

Otajonim yotgan qaro yer,
Enajonim botgan qaro yer,
Qanchalar lak-lak odamni
Komiga tortgan qaro yer.
Yor yuzida meng ham — yer,
Osmonlarga teng ham — yer,



Tor ham yerdir, keng ham – yer,
Men – yer, U – yer, sen ham – yer,
Bori odam yerdir, yer...
Zolim vaqt, yelkangni ber:
Yig‘lashaylik-a, g‘amdoshim-a,
Qutlug‘ bo‘lsin, Yilboshing!

Ko‘ngil, dardni aytib qol,
Yoshlaringni artib qol,
Uch yuz oltmish to‘rt kun – g‘am,
Bir kun g‘amdan ortib qol.
Kam dunyo – kamni unut,
Quvnagin – g‘amni unut.
Bir kuningni baxtga ber,
Ko‘zdagi namni unut...
Oqmay ko‘zimdan yoshim-a,
To‘yni boshla-ya, Yilboshi!



* * *

Bu qo'shiqni Turmamat baxshi Jonmurod jebachining qizi Hulkarni Quvvatboyvachcha bilan tanishib yurganda — bir o'tirishda boyvachchanning ko'ziga qarab, aytgan ekan:

Qurgan uying cho'pkori-ya, boy bola,
Turqing hutning ho'lqori-ya, boy bola,
Isliq ko'zingni olgan-a, boy bola,
Yulduzlarning Hulkari-ya, boy bola.

Ovqat ye, ana, qoshiq-a, boy bola,
Senga yarashmas yoshlik-a, boy bola.
Osmonga qarab yurma-ya, boy bola,
O'zim Hulkarga oshiq-a, boy bola.

Tumog'imning jig'asi-ya, boy bola,
Falaklarga tegasi-ya, boy bola.
Hulkarga yetolmaysan-a, boy bola,
Hulkarning bor egasi-ya, boy bola.

Ovqat yeysan, tinmaysan, boy bola,
Nima bo'ldi bilmaysan-a, boy bola.
Pulni sanab yuraver-a, boy bola,
Sen ko'ngilda unmaysan-a, boy bola.

So'zlar so'zga qalashar-a, boy bola,
Dunyo bilan talashar-a, boy bola.
Menday osmon yigitga-ya, boy bola,
Hulkar asli yarashar-a, boy bola.

Qo'shiqni cho'zib oldim-a, boy bola,
Ming dardda to'zib qoldim-a, boy bola.
Hulkarga yetolmaysan-a, boy bola,
Uni men uzib oldim-a, boy bola.

Bundan, adashmasam, o'n uch asrcha avval, Turmamat baxshidan, guringlashib Asqartog'ning belida o'tirganimizda, "Shunday gap bo'lganmi?" deb so'radim.



“Bilmadim, — dedi Turmamat baxshi kulimsirab. So‘ng qo‘tonda kuymalanib yurgan Hulkarboybichaga ishora qildi. — Ana, momongdan so‘ra”. “Qarib, esimda es qolmagan, — dedi Hulkarboybicha savolimdan qiz boladay uyalib, — Bo‘lsa, bo‘lgandir...” “Baxshibobo boyvachchadan qo‘rqmaganmi?”, dedim gapni chuvalatib.

“Nodon gaplarni gapirma, bolam! — dedi boybicha ko‘zimga tik qarab. — Shoir faqat Xudodan qo‘rqadi”.

Ahvollar yaxshimi, o‘zbekning shoirlari? Bular endi eski gaplar. O‘qimasangiz ham, mayli. Tag‘in bir kori hol bo‘lmasin, deyman-da!.. Bandasidan ham qo‘rqadigan zamon kelsa, kelgandir...



* * *

Elbek baxshi Shomurod baxshidan ko'p gapirar edi. Bu undan qolgan meros deb, bizga aytgani-aytgan edi:

Sochlaring sozima tormidi,
Qomating qatlima dormidi;
Bir ham qayrilib boqmaysan,
Menga bu azob ham bormidi?

So'zim-a keladi cho'zilib,
Ko'z yoshday yurakdan tizilib.
Ko'ngling bilan, yor, ushlab qol,
Dunyodan tushmayin uzilib.

Kechasi uxlashga bormagan,
Osmonda oymidi – porlagan.
Ko'nglingning yo'lidan qolmagin –
O'zimman ko'nglingni chorlagan.

Boshimdan davroning yeladi,
“Yor” desam – shamoling keladi.
Tog'lardan balandroq boshimni,
Sog'inching qorlarga beladi.

Bu dunyo o'tari, o'tari,
Yuragim chopadi ko'pkari.
Dunyoning ichida yiqildim –
Dardingni bo'lmadi ko'tarib.

Bu dunyo turguncha “yor”, desam,
“Sen bilan bu dunyo bor”, desam.
“Bir boqsang – bir umr behishtdir,
Boqmasang – boshimda dor”, desam.



Suhbatlar qurdim-u sog'indim,
Olisda yurdim-u sog'indim.
Mingsuluv, bu qanday sog'inchdir,
Yoningda turdim-u – sog'indim.

“Rahmatlik Shomurod! – der edi qo'shiqni tugatib, Elbek baxshi allaqanday g'urur bilan, – umrini xotini Mingsuluvga qo'shiq bag'ishlab o'tkazdi”. “Boshqa ishi yo'q edimi?” – der edim men kulib. “Yaxshi ko'rar edi! – der edi Elbek baxshi. – Hammaga shunday yaxshi ko'rish nasib etsin!”. “Mingsuluv ham yaxshi ko'rar edimi?”, deb so'rar edim. Elbek bu savolni eshitmaganga olib, Shomurodni yo'qlashga tushib ketardi: – Ha, bechora Shomurod! Ha, shoirlarning sultoni!.. Ha, kuygan qul! Yongan qul!..”



* * *

Xolmamat yasovul do‘mbirani qo‘liga ushlamagan, “baxshiman”, deb birovning boshiga mushtlamagan odam. Ammo Xudoning shu to‘nka bandasi ham, Xonimgul chechani yaxshi ko‘rib qolganida, qo‘shiq aytib yuborgan ekan. U qo‘shiq mana bu turur:

“Yor-yor” desam, yor ketdi,
Ko‘nglimdan bahor ketdi.
Yorimning suygani bor,
Kuyganim bekor ketdi.

Senga “oh”im yetmasmi,
Sensiz kunim o‘tmasmi?
Ko‘zingga bir tikilsam,
Jonim chiqib ketmasmi?

Sen ertakdan ziyoda,
Yetay qanday piyoda?
Agar seni ko‘rmasam,
Sig‘magayman dunyoga.

Xonimgul “shu bechora ham dunyoga sig‘sin”, deb, Xolmamatga erga tegib qo‘ya qolgan ekan...



* * *

Qo'ng'irotda hamma shoir bo'lgan. Yuragi dardga to'lgan odam sharillatib, she'r aytib ketavergan...

Usta Jonqobil Boymurodbiyga sakkiz keragali uy – o'tov yasab berib yurganda, biyning Gulkelar degan qiziga ko'zi tushib, oshig'i beqaror bo'lgan ekan. O'tovni qizning ishqida mast bo'lib yasagan ekan.

O'tovni bitkazib qishloviga qaytgan keyin ham, Gulkelarni sog'inaveribdi. Dardga to'lib, bir necha bor o'lib ko'rgandan so'ng, bir kun mana bu qo'shiqni birdan aytib yuboribdi:

Ishqing balodir, Gulkelar,
Jonim olodir, Gulkelar.
Esima tushsang, bu ko'ngil
Yig'lab qalodir, Gulkelar.

Gulkelar, gulgun kelar,
Gul bilan to'lgim kelar.
Bu sog'inchning kechasida
Kelmasa, o'lgum kelar.

Anov tog'dir ko'kni tutgan,
Gul kelar deb hutni kutgan.
Boyqiz, sensiz yasholmayman,
Meni ishqing yutgan, yutgan...

Oy nur sochdi-yo, Gulkelar,
Aqlim toshdi-yo, Gulkelar.
Yodimga tushsang, tog' oshib,
Umrin qochdi-yo, Gulkelar.

Kechasi tog'lar zim-ziyo,
Boshimda aylanar dunyo.
Yig'laganim tosh ham bildi,
Toshlar sendan yaxshimi yo?



Toshlar kul bo'ldi, Gulkelar,
Ko'nglim gul bo'ldi, Gulkelar,
Bu holimdan xabaring yo'q –
Qanday kun bo'ldi, Gulkelar!

Tog' boshida yolg'iz kiyik,
Bo'ri yo'lin o'tar qiyib.
Tosh bo'lsang ham xabar olgin,
Ado bo'ldim kuyib-kuyib.

“Oh”im tutundir, Gulkelar,
Jonim kukundir, Gulkelar.
Sen kelmasang – bu dunyo yo'q,
Kelsang butundir, Gulkelar.

Boymurodbiy bu qo'shiqni eshitganda, safarda edi. Kelib, usta Jonqobil qurgan o'tovni ko'rdi: sakkiz keragali uy dunyoni ichiga joylab turibdi. “Qo'shiqday uy bo'libdi”, dedi biy. “Qizingni ko'ngli bo'lsa, ayt, Jonqobil sovchilarini yuboraversin”, dedi so'ng xotiniga.

Ko'p o'tmay to'y bo'ldi.

Birodarlar, u zamonlarning biylari odamni ko'ngli-yu ishiga qarab, qadrlar ekanlar...



* * *

“Bundan yetti yuz o‘n sakkiz yil avval, Farg‘onaga kelganimizda, — deb eslaydi Elbek baxshi. — Mingqarchig‘ay shoir bir farg‘onachi qizni yaxshi ko‘rib qoldi. Qaytishda, Boysun-Qo‘ng‘irotgacha yetguncha, o‘n uch-kecha-yu kunduz shu qizning ishqida dunyoni yig‘latib, tinmay qo‘shiq aytib bordi. Mana bu — qo‘shiqdan esimda qolganlari...”.

Qorong‘u kechalarda
Topgan kunduzim, yor-a.
Sog‘inganda ko‘zimdanda
Uchgan yulduzim, yor-a.

Qismatning ko‘chasidan
Seni izladim, yor-a,
Qachon ko‘ngildan kechdi
Atir izlaring, yor-a?

Bog‘dan shamolday o‘tding,
To‘lg‘onib qoldim, yor-a.
Sening nurli dardingga
Cho‘lg‘onib qoldim, yor-a.

Oting aytsam, falakdan
Sado qaytadi, yor-a.
Sen kelsang, bu olamga
Xudo qaytadi, yor-a!

O‘n sakkiz ming olamdan
Kechgan bandaman, yor-a,
Kelsang, hamma g‘amingni
Yig‘lab aytaman, yor-a.

Seni qo‘shiqqa solsam,
So‘zlar tizildi, yor-a,
Yuragim tomchi yoshday
Mendan uzildi, yor-a!



Bogʻlarga kuz keldimi,
Falakda turna, yor-a?
Meni kuzakka tashlab,
Bahorda yurma, yor-a!

Nasib boʻlsa, chorbogʻlar
Koʻrkam boʻladi, yor-a.
Sen kelgan kun bu dunyo
Koʻklam boʻladi, yor-a.

Hay, yor-a,
Voy, yor-a,
Bu jonim pora-pora!
Hay, yor-a,
Voy, yor-a,
Yurak boʻldi ovora.

“Fargʻonachi qizga nima boʻldi? — deb soʻrayman. — Mingqarchigʻay qoʻshiq aytib yuraverdimi?”. “Mingqarchigʻay eldan ruxsat olib, Fargʻonaga qaytdi, — deydi Elbek. — Fargʻonaning dardi ichiga sigʻmagan shoirlarining hammasi shu Qarchigʻayning avlodi turur”.



QO'NG'IROT AYOLLARINING QO'SHIQLARIDAN

1

Oyyorug' – eshigidan sovchilarni kirg'izmagan, uyining oldidan yigitlarni yurg'izmagan qiz – birov bilan ishi yo'q, faqat “oh” urar ekan. Umr bo'yi erga tegmay o'tib, yigirma beshida omonatini Allohga topshirgan ekan. Elbek baxshi “Oyyorug'dan qolgan” deb mana bu qo'shiqni ba'zan aytib berar edi.

Shamollar oqib yotar, alam yor.
Eshikni qoqib yotar, alam yor,
Hijron degan bir ilon, alam yor,
Yurakni chaqib yotar, alam yor.

Ilon zahrida so'lsam, alam yor,
Sening ishqingda o'lsam, alam yor.
Ko'zni yumar paytimda, alam yor,
Diydoringni bir ko'rsam, alam yor.

Terak uchida osmon, alam yor,
Yulduzlar aytar doston, alam yor.
Seni o'ylab yig'lasam, alam yor,
Bosh egib tinglar jahon, alam yor,

Yuragimning yonishi, alam yor,
Ayriliqdan tonishi, alam yor,
Tunlar seni o'ylasam, alam yor,
Olam ketar yorishib, alam yor.

Xudoning ne korisan, alam yor,
Bor jonimning borisan, alam yor
Nomingni tutolmayman, alam yor,
Sen birovning yorisan, alam yor.

Bu qo'shiqni eshitgach, biz uzoq jim o'tirar edik.



– Ayollarning biz eshitmagan qo'shiqlari ko'p, – der edi Elbek baxshi. – Erkaklarning tiliga tushsa, qo'pol tortadi, deb bizga eshittirishmaydi.

Biz hammamiz bobo shoirning gapiga qo'shilar edik.

Bir kun bir daryo bo'yida, tolning tagida soyalab yotganimda, bir qizgina ko'zi yoshlanib, dunyoni ko'rmay, narigi qirg'oqqa tumandagi oyday chiqib keldi. Qarasam, Olloyor yasovulning qizi Qarosoch. U daryoga qarabmi, dunyoga qarabmi, bir qo'shiq aytdi...

Ketmonchopti kemtigi,
Yorim kelar entikib.
Kulib chiqay yo'liga,
Olachadan to'n tikib.

Tog'dan nari Sarqamish,
Qamishning ishi – yonish.
Yorim seni ko'rmasam,
Aytgan so'zlarim – nolish.

O'tasan xumor etib,
Ishqingda bedor etib.
Duo bo'lib yozilay,
Taq meni tumor etib.

Terakzorning teragi,
Og'a, yo'qmi keragim?
Kelmasang, jonim olgin,
Tolib bo'ldi yuragim.

Saratonning soyiman,
Ming yulduzning oyiman.
Siz uchun o'lib ketsam,
Yor ketdi deb koyimang.

Dunyo turar ovushib,
Changga botdi kovushim,



“Kelmang”, deb aytay desam,
Titrab borar tovushim.

Ko‘zlaringga sur meni,
Uying bo‘lay – qur meni.
Suyganimni tashlasam,
Parvardigor, ur meni.

Bulut osmonda sanqir,
Ko‘chada yog‘di yomg‘ir.
Yor shu yerda turibdi,
Toshlardan ham gul anqir.

Sevsang, dunyo bir jom may,
O‘tib bo‘lmaydi ichmay.
Og‘a, sening uyingga,
Kelin bo‘lsam yarashgay.

O‘choq boshida keli,
Yetdi Yetimak yeli.
O‘lim olib qochmasin,
Og‘a, olib qol meni.

Tomog‘imga yig‘i tiqilib, jimgina eshitib yotdim. Qo‘shiq miyandan zimillab kirib, yuragimda to‘xtadi. O‘mganimni ko‘tarolmayman deng...

Ertasi nima bo‘lsa, bo‘lsin deb, Qorasochga sovchi yubordim. Qorasoch rozi bo‘ldi. To‘y qildik.

Qorasoch keyin ko‘p yillar, menga kulibgina qarab, “tilakni ro‘yobga chiqsin desangiz, suvga ayting”, deb yurdi... Men indamadim.

Ayollarning siri bo‘lgani yaxshi, birodarlar...

3

Aytishlaricha, bu qo‘shiqni Norbibi bundan ikki yuz yil ellik yil avval Mengliyozi chobag‘onga atab to‘qigan ekan, ammo birovga emas, faqat ko‘ngliga o‘qigan ekan. Mengliyozi ham qo‘shiq bo‘lganini bilmay, dunyodan o‘tgan ekan.



Bog' ichinda gul-u barg ochdi daraxt,
Gullariga to'ymagay ko'zim qarab.
Bog' aro, men ham nechun gul bo'lmayin,
Kelasan bahor kabi – ko'ngil talab.

Jon dedim, jonim dedim, jondan ziyodimsan o'zing,
Meni g'amga qoldirib, g'amdan ozodimsan o'zing.

Bog' ichinda turishim nozik nihol,
Seni o'ylab gulladim misli xayol.
Boqqa kirma – izimni topolmaysan,
Meni otga o'ngarib ketdi shamol.

Kel dedim, kelgin dedim, kelmoqdan qaytgonim
o'zing,
Bandasiga so'z berib, Ollohga aytgonim o'zing.

Bog' ichinda gul-u barg ochdi daraxt,
Gullariga to'ymagay ko'zim qarab.
Bog' aro, men ham nechun gul bo'lmayin,
Kelasan bahor kabi – ko'ngil talab.

Bir ajib tushlar ko'rib yo'lingga boqdim intizor,
Ikki dilda ikki gulmiz, bir bog'da bo'lsak bir bahor...

4

Bu qo'shiqni Ko'nglioy momo “birovning qo'shig'i,
bilmayman, qaysi go'rdan esimda qolgan”, deb aytib bergan.

Bek yigitning egnida ola chopon,
Qarasam olasiga rangim somon.
Bek yigit, otingni to'xtat bir nafas,
Berayin mol bo'lsa mol, jon bo'lsa jon.

Chakmoningni yoqasi qunduz movut,
Boshimni movutga qo'ygin-da, ovut.
Og'ajon, ko'rganda yonib boraman,
Og'ajon, ko'nglimga kirgin-da sovit.



Sarqamishning ko'lida o'sdi qamish,
Qamishning barglari o'n bir qarich.
Bek aka, menga qaramay o'tdingiz,
Tillarimning uchida qoldi nolish.

Katmonchopti ustiga qo'ndi bulut,
Qo'shiq aytib o'tasiz har dam kulib.
Qo'shig'ingiz damlari seldan ziyod,
Biz kabi toshlarni ham ketgay yulib.

Saratoning kechasi — sog'inch payti,
Bobotog'dan o'tasan qo'shiq aytib.
Yo'qolgan qo'shig'ingning bir baytiman,
Qo'shig'ingga avj bo'lay, kelgin qaytib.

Bek yigitning mingani qora tulpor,
Turishiga boqadi ko'kdan Hulkar.
Bek yigit, boshingni ko'tar-da qara,
Ko'kdagi Hulkardan ham yoring — dilbar.

Bu qo'shiqni eshitib, yo'lda kelarimizda Turmamat shoir kuldi:

— O'zi to'qigan bu qo'shiqni, — dedi. — Qo'shiq to'qiy berib, Bekto'qson boboni elitib olgan ukag'arning qizi!..

— Ko'nglioy chechan kampir, — dedi Elbek baxshi. — Xudoning o'zi biladi ichida qancha qo'shiq uchib yurgani-ni!

So'ng bizga bir qur qarab, suhbatga "omin" deganday qo'shib qo'ydi:

— Ko'nglingga siqqan qo'shiq, dunyoga sig'masligini shu momo biladi...

Bu gapdan negadir et-u suyagim zirqirab ketdi.

5

Mingsuluvning so'zi bir suluv, o'zi bir suluv qiz bo'lgan ekan. Bir to'yda "aytishsam, Kunto'ra bilan aytishaman", deb qolibdi. Do'mbirani sozlab, yuragi og'rigan so'naday bo'zlab, aytishuvni boshlabdi. Ko'nto'ra esa qizga



qarab, husniga lol bo'lib, o'zi ming hol bo'lib – bir so'z deyalmay turabergan ekan.

Mingsuluvning noiloj o'zi aytib, o'zi qaytgan qo'shig'i mana bu turur:

Osmonlarga boqdim turna tizildi,
Turnalarga qarab ko'nglim buzildi.
Turnalarga qarab sizni eslasam,
Avaylab bog'lagan umrim uzildi.

Ishq degani xudo bergan falakdir,
Falakka yetmayin umrim halakdir.
Bir egiling, xudo bergan osmonim,
Qaro yerda yotgan bu tosh – yurakdir.

Og'a, kiygan choponingiz banotdir,
So'zlaringiz tilga olsam – novotdir.
Xatingizni harflab-harflab o'qisam,
Xudo bergan besh kun umrim oboddir.

Qumqo'rg'ondan o'tib Surxon oqadir,
Yo'llariga Jayxundaryo boqadir.
Yolg'iz-yolg'iz daryolar ham bir bo'ldi,
Biz bir bo'lsak – xudoga ham yoqadir.

Boysun yoqdan kelar yelning haydari,
Men boraman yor yonidan haydalib.
Men haydalib ketsam agar dunyodan,
Siz bir so'rang, olloh berar qaytarib.

Shamol tursa, shitirlaydi qamishlar,
Sizni so'ray desam – kelmas tanishlar.
Olistardan kelib arzimni tinglang,
Yuragimga sig'mayapti nolishlar.

Qo'shiq aytar dashtda cho'pon cho'lig'i,
Changaroqdan oy boqadi to'liqib.
Osmonlarga bosh ko'tarib bir qarang,
Oylardan yorug'man sizga yo'liqib.



Qiz bolaga o‘ynab kulmoq yarashar,
Devordan mo‘ralab tog‘lar qarashar.
Oyday yuzim oyday balqsa dunyoda,
Chap ko‘zingiz o‘ngi bilan talashar.

Oq o‘tovda olov yoqib qishlaysiz,
Meni ko‘rib mo‘ylovingiz tishlaysiz.
Qor oralab o‘tib ketsam buloqqa,
Gunohi yo‘q boshingizga mushtlaysiz.

Shamolimga qorib ketaman sizni,
Izlarimdan olib ketaman sizni.
Bir sevgimni ko‘tarolmay turibsiz,
Cho‘ntagimga solib ketaman sizni.

“Keyin nima bo‘ldi?”, deb so‘rayapsizmi, Mingsuluv-
ni ko‘rmagan Qo‘ng‘irotning jigitlari! Nima bo‘lar edi? “Sen
Kunto‘rasan”, deb o‘tirarmidi Mingsuluv, cho‘ntagiga solgan
ketgan-da!..

6

Bu qo‘shiqni Oyyorug‘ degan sag‘ir qiz qo‘zi-uloqni
boqib yurib, aytgan deyishadi. O‘ziyam Oyyorug‘ osmondan
tushganday qiz ekan – na quvishgani bor ekan, na
tug‘ishgani! Faqat ko‘ngli bor ekan, bechora qizni, ko‘ngli!
Bo‘lmasa, Oyyorug‘ o‘tganidan keyin, bir yuz sakson yetti
yil o‘tib, uning qo‘shig‘ini eslab o‘tiranmanmi?

Keldi shamol, keldi shamol, keldi – netay,
Yor isiga yer-u osmon to‘ldi – netay!
Yor isiga yer-u osmon to‘lib ketdi,
Bu dunyoning ismi sog‘inch bo‘ldi – netay.

Sog‘inchimning osmonida yulduz yondi.
Bir yulduzdan kechalarim olov oldi.
Otashimdan balqib chiqqan kunduzimsan,
Yorug‘ingga qaray desam – ko‘zim toldi.



Oyday chiqib, quyosh bo'lib botgan o'zing,
Yovg'onimga qora qatron qotgan o'zing.
Bu dunyoning bozoriga bormaganman,
Yuragimni ham olib, ham sotgan o'zing.

Biyobondan ketayapman sarson-sarson,
Yalang-yalang yuragimga kirdi tikon.
Gulli-gulli bog'laringni bir ko'rmadim,
Gullaringni bir hidlamoq bo'ldi armon.

Keldi shamol, keldi shamol, kelsa – netay,
Shamolingga jonni qo'yib, tortiq etay.
Quyun holim seni quvib yetolmasa,
Bu dunyoga jonim qo'yib, sarson ketay.

7

Qo'ng'irotning qizlari qo'l yetgulik zamonlarda ham,
bahor kelganda, o'tovning oldiga chiqib, chanqovuz chalib,
da'f urib, o'y nab-kulishar ekan. Mingchechak degan qiz bu
qo'shiqni boshida kulib, oxirida yig'lab aytar ekan.

Ko'zing olisdan boqdi-ya, voy, jonim
Jon-u dilimni yoqdi-ya, voy, jonim.
Tushim ekannin bilib-a, voy, jonim,
Ko'ksimga yoshim oqdi-ya, voy, jonim.

Voy, jonim! Voy jonim! Voy, jonim!
Kelsang, ketar armonim-a,
Voy jonim!

Hijron elas-elasdir-a, voy jonim,
Hali sog'inch emasdir-a, voy jonim.
Sog'inchlarda qiynamay-ya, voy jonim,
Sizdan xatlar kelmasdir-a, voy, jonim.

Voy, jonim! Voy jonim! Voy, jonim!
Kelsang, ketar armonim-a,
Voy jonim!



Uchib borar juft oʻrdak-a, voy, jonim,
Biri-biriga oʻrnak-a, voy jonim.
Yolgʻizgina ketdingiz-a, voy jonim,
Yolgʻiz jonimni oʻrtab-a, voy, jonim.

Voy, jonim! Voy jonim! Voy, jonim!
Kelsang, ketar armonim-a,
Voy jonim!

Shamol oʻtadi gangib-a, voy, jonim,
Koʻksiga gulni tangʻib-a, voy jonim.

Yoʻlingdan yurolmayman-a, voy jonim,
Hushimni olar anqib-a, voy, jonim.

Voy, jonim! Voy jonim! Voy, jonim!
Kelsang, ketar armonim-a,
Voy, jonim!

Toqatlarim tolmoqda-ya, voy jonim,
Jonim sabil qolmoqda-ya, voy jonim.
Daryo boshiga chiqqin-a, voy, yorim,
Koʻnglim oqib bormoqda-ya, voy, yorim

Voy, jonim! Voy jonim! Voy, jonim!
Kelsang, ketar armonim-a,
Voy, jonim!



* * *

Bu qo'shiq egasiz. Kim aytganini hech kim bilmaydi.
Qo'shiqqa aylangan bir egachim aytgan bo'lsa kerak-da!..

Olislardan ul yor
Boqib o'tadi.
Soylardagi sellarday
Oqib o'tadi.

Soylardagi suvingdan
Uzatib ketgin,
Jismimni vayron qilding –
Tuzatib ketgin.

Osmonga boqsangiz,
Qushga to'ladir.
Ayriliqning umri
Tushga to'ladir.

Tushlarimning bori
Rangga o'ralgan,
Sening ishqing jon-u
Tanga o'ralgan.

O'z yoridan kechgan,
Asli xudosiz-a,
Bir "oh" ursam, qushday
Uchib kelosiz.

Uchib kelgan qushning
Qanoti bordir,
Qanoti bor ishqning
Hayoti bordir.

Kelmasangiz qaytib
O'taman yorsiz.
Umrin ado bo'lguncha
Ko'nglimda borsiz...

MUNDARIJA

O‘zim haqimda	3
“Tong titraydi kech kuzakning quchog‘ida...”	6
“Umrinni bir olis ishqqa almashdim...”	7
“Yolg‘izlik ortimdan huvillab quvdi...”	8
Dasht haqida ballada	9
“Bekor...”	11
Lo‘li qiz qo‘shig‘i.....	12
“Osmonga ham otgum tosh...”	13
Parallel chiziqlar	14
Mo‘min Mirzoning so‘nggi qo‘shig‘i	16
Abdulla Qodiriy	19
Qishki ertak	20
“Chavandoz uloqdan qaytdi piyoda...”	21
“Moviy havo to‘lqinlarida...”	22
“Ohista-ohista yog‘adi yomg‘ir...”	23
Mamatrayim baxshining bir davrada aytgani	24
Vatan haqida she‘r	25
Boychechak	28
Onamga maktub	31
“Sen yo‘q eding...”	32
“Derazadan boqar sohibjamol oy...”	33
“Rashk, g‘iybatning to‘lqinlarida...”	34
Alamli qo‘shiq	36
Yoz	37
“Qiyinaladi oftobni kutib...”	38
Hayot qo‘shig‘i	39
Besehr ertak	40
“Otim qolar demagin...”	41
“Taxtli ko‘ngil – faqir bo‘lgin...”	42
“Derazamda ikki qush...”	43
“Zanjirlarni uzdim...”	44
“Yuraver...”	45
“Goh gujum shovullar, goh shitirlar tok...”	46

“Tosh-beton cho‘ng qoyalarda...”	47
“Siz yoqqansiz menga hamisha...”	48
“Sevgimiz o‘ldimi? — libosingiz ko‘k...”	49
“Endi u ko‘chaga sira bormayman...”	50
“Yiqildingmi?... ”	51
Bolalikdan ikki xotira	52
“Osmon uzilib tushdi...”	54
“Bir gul eding — shamol bo‘lib...”	55
“Shamollarda ko‘zimdanda...”	56
“Sevgi — xatda naqadar go‘zal!...”	57
“Ariq bo‘ldim yoz bog‘larida...”	58
“Og‘ir fe‘lli mehnatkash bola...”	59
“Saraton — ochiq yuz...”	60
“Ana, yurak qush kabi uchdi!...”	61
“Qirq ot qo‘ydi qismat qarshimda...”	62
“In‘om etib bor ne‘matini...”	63
“Mening tosh ko‘nglimni taroshla...”	64
“O‘lgin deding — yerga ko‘mding...”	65
“Jonim manim...”	66
“Yulduz uchsa qo‘rqmagin...”	67
“Baxt kabi gulladi bog‘imda bahor...”	68
“Ko‘kda — shamol daryolarida...”	69
“Eng avval teraklar...”	70
“Sevgi yozi kuzga ko‘mildi...”	71
“Ertaksevar jonim...”	72
“Tazarru kerakmas...”	73
“Viqorlisiz o‘zgaralar bilan...”	75
“Tun bo‘yi guvladi taqdir shamoli...”	76
“Ha, dunyo ham senga oshiqdir...”	77
“Sening o‘jar lablaring alvon...”	78
“Qay baloga...”	79
“Daraxtlar ortidan qorlar to‘kildi...”	80
“Ko‘zimga tushdi quyosh...”	81
Qanotli kecha	82
“Qorday yog‘ib keldi ishq...”	84

“Qor uchqunin kaftida...”	85
“Quyosh yaraqlaydi – yaratqu tarzli...”	86
“Mening yuragimdan boshlandi bahor...”	87
“Ezilib-ezilib yomg‘irlar yog‘di...”	88
“O, bog‘lar gulladi...”	89
“Yorug‘lik tunga teng keldi...”	90
“O‘tib borar jonga – ko‘zimdan...”	91
“Bolari tentirar – gullarga cho‘ri...”	92
“Zaminda salqin oz...”	93
“Bog‘da nur-u soya uxlar ayqashib...”	94
“Ariqlarda oqib borar oy...”	95
“Kun bo‘yi daraxtlar quyoshda turdi...”	96
“Chinorlarni tizdim ko‘cha chetida...”	97
“Shamol...”	98
“Yomg‘irdan so‘ng ko‘chalar nafis...”	99
“Havoda uchdilar...”	100
“Osmon ko‘m-ko‘k...”	101
“Ko‘kdagi tirik bulut...”	102
“Bo‘ronda adashgan tog‘...”	103
Dasht va tog‘ haqida qissa	104
“Gulxan yonar tun o‘rtasida...”	106
“Kuz zabt etgan qishloqda oqshom...”	107
“Yam-yashil tanini shamol supurdi...”	109
Hakim at-Termiziy maqbarasida	110
“Seni ko‘tarib toldi...”	111
Mashrab	112
“Hali cho‘kmadi yelkam...”	113
“Hech narsa yo‘q qo‘limda...”	114
“Necha kun yashaysan...”	115
“Ko‘zlarida uyqusi arib...”	116
“Meni tashlab ketmang...”	117
“Yulduzlar o‘tida boshim mash‘aldir...”	118
“O‘rgimchakday dayri dun...”	119
“Neki zalvoridan ayrildi – o‘tdi...”	120
O‘tar dunyo balladasi	121

“ – Ertak tugadi...”	123
“Men seni har kuni ko‘rgim keladi...”	124
“Bu ayol chiroyli...”	125
Navoiy	126
“Seni sog‘inganda...”	127
“So‘zlarni samoviy ranglar o‘radi...”	128
Tush haqida ertak	129
Dedal va Ikar	131
“Qorong‘ulik bo‘lmaganda...”	133
“Ayozi...”	134
“Shaboda!...”	135
“Bilaman, hayot – kurash bilan tirik...”	136
“Ikki jo‘yak tok, olmazor...”	137
“Gulchehraning qo‘li gul...”	138
Ertakga iqtibos	139
“Men azobdaman, senga aytsam...”	140
“Kunlarda – yo‘q ozor...”	141
Undov so‘zlariga bog‘da yozilgan sharhlar	142
Baxshiyona	143

USMON AZIM

SOG'INCH

She'rlar

«O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti
Toshkent — 129, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Muharrir	<i>Habib Abdiyev</i>
Rassom	<i>Anatoliy Bobrov</i>
Texnik muharrir	<i>Mirziyod Olimov</i>
Sahifalovchi	<i>Azamat Jumaniyozov</i>

2007-yil 01.06 da bosishga ruxsat etildi. Qog'oz bichimi $84 \times 108 \frac{1}{32}$.
10,5 shartli bosma taboq. 9,33 nashriyot-hisob tabog'i. Adadi 3000.
Bahosi shartnoma asosida. - buyurtma.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining
«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida bosildi.
Toshkent — 129. Navoiy ko'chasi, 30-uy.